**O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI**

**AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

MEHNAT TA’LIMI KAFEDRASI

# BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: **O’quvchilarga rangli qog`ozga tematik kompozitsiyani ishlashni o’rgatish metodikasi**

Bajargan: 4e-MT talabasi K.Karimova

Ilmiy rahbar: katta o’qituvchi M.Amanbaev

Kafedra mudiri: dots. B.Ibragimov

**NUKUS-2016**

MAVZU: **O'quvchilarga rangli qog`ozga tematik kompozitsiyani ishlashni o'rgatish metodikasi**

**REJA:**

KIRISh

**I-BOB. APLIKATSIYA SAN'ATI**

1.1. Applikatsiya haqida tushuncha

1.2. Tarixdan ozgina so'z

**II-BOB. MEHNAT TA'LIMIDA APLIKATSIYANING AHAMIYATI**

2.1. Applikatsiyaning rivojlanish jarayoni

2.2. Applikatsiya san'atini o'rganishdagi chet el tajribasi

2.3. Maktab o'quvchilariga rangli qog'ozda tematik kompozitsiyani applikatsiyada ishlash metodikasi

2.4. Maktab o'quvchilariga applikatsiya darslarini tashkil qilish

Xulosa

Foydalangan adabiyotlar

# KIRISh

Hozirgi vaqtda maktab o`quvchilarini tarbiyalash, mutaxassislar tayorlash masalalari Respublikamizning mustaqilligi sharofati bilan davlatimiz bugungi kunda ta`lim sohasidagi yutuqlari «Ta`lim to’g’risida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» da yoshlarni ma’naviy etuk, barkamol inson etib tarbiyalash vazifalari oliy maqsad qilib qo’yilgan. Umumta’lim maktablarida o’quvchilarga estetik ta’lim va tarbiya berishda applikatsiya ishlarini tushuntirish, ularda amaliy ko’nikmalar hosil qilish va rivojlantirish katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

Mehnat darslarida applikatsiya ishlarini o’rgatish bolalarning ijodkorlik qobiliyati, badiiy didini paydo bulishi, sezuvchanlik madaniyatining rivojlanishi yuzaga keladi. Aplikatsiya san’ati elementlarini o’rgatish bilan birga uning sohalari, turlari, janr va yo’nalishlari haqida bilimlarga ega bo’ladilar.

Prezidentimiz I.A.Karimovning ko’pchilik kitoblarida biz eng ardoqli haqiqatni, haqiqatni bor vijdonimiz, iymonimiz bilan tushunib etishishimiz, xalq oldida, millatimiz oldidagi asosiy farzimiz sifatida tushunib butun vujudimizga singdirib olishimiz shart, u ham bo’lsa haqiqiy bilimli, ma`lumotga ega bo’lgan odamlargina milliy faxrimizni, uzining milliylik ongini rivojlantiradi, ozod va obod jamiyatda yashash uchun kurashadi, mustaqil davlatimiz jahon jamiyatiga uzining tegishli urnini egallashga, obruga-e’tibor, hurmatga ega bo’lish uchun bor kuchini, yuragining o’tini fido etishga, jon kuydirib yashaydi [1].

Mana, shu yuqoridagi fikrlarning uzida yosh avlodni tarbiyalab etishtirish, ularni bilimli, madaniyatli, komol inson qilib tarbiyalash, malakali kadrlar tayyorlash, jamiyatda, hayotda o’z o’rnini topishiga to’g’ri yo’l ko’rsatish va yordam berish davlatimizning oldida turgan eng asosiy vazifa bo’lib hisoblanadi.

Bu ahamiyatli vazifani amalga oshirish xar bir fuqaroning, davlatimizning ta’lim va tarbiya jarayonini amalga oshirish uchun ta’lim muassasalarining bolalarga bilim berishni ilmiy asosida tashkil qilinishi zarur ekanligi ma’lum

bo’lmoqda. Uning uchun eng avvalo bolaga do’stona munosabatda bo’lib, bilim berishimiz asosiy vazifamizga aylanishi shart.

Hozirgi zamon tarbiyachilari kasbiy kompetentsiyasiga qo`yilayotgan yuqori talablar umum ta’lim maktablari va kasb-hunar ta’limi muassasalari isloxotlariga tegishli hukumat hujjatlar va moddiy materiallarida o’z ifodasini topmoqda.

Mustaqil davlatimiz bugingi kunda ta`lim sohasida katta yutuqlarni qulga kiritishga muyassar bulmoqda. Yosh avlod tarbiyasidagi milliy urf-odat dasturlariga alohida e`tibor berildi. Ularni eng asosiy vazifa yosh avlodni badiiy bilim, estetik nazariyasini yaxshilashdan iborat. Go`zallik hissini rivojlantirish, yuqori estetik didlarni shakllantirish, san`at asarlarini, tarixiy va arxitektura esdaliklarini, Ona tabiatning go’zalligini va boyliklarini tushunish, baholash, asrab avaylash tushunchalarini rivojlantirish zarur.

Bu borada applikatsiya ishlari orqali ushbu bilim, ko’nikma va qobiliyatlarni rivojlantirish mumkin. Shu bois «Applikatsiya» san’atiga tuxtalib utamiz. Bu fanning asosiy vazifasi o’qituvchilarga, bolalarda go’zallik hissini rivojlantirishga, yuqori estetik hislarni shakllantirishga, haqiqiy badiiy asarni past mazmunli asardan farqlay olishiga yordam beradi. Applikatsiya dasturiy kursi o’quv darslarida bolalarning ijodiy qobiliyatida badiiy didi paydo buladi, sezuvchanlik madaniyatini qurish orqali tahlil qilish qobiliyati rivojlanadi. Bundagi asosiy bo’lim qog’ozdan ishlangan applikatsiya bo’lib hisoblanadi. Applikatsiya ishlarini o’zlashtirishda tanlash hissi, qobiliyati rivojlanadi.

# I-BOB. APLIKATSIYA SAN’ATI

## 1.1. Applikatsiya haqida tushuncha

«Applikatsiya»- lotincha «applikatio»- bosish, uyish, kesib olish, xar xil shakllarni ustiga kuyish va ularni asosiy rang deb xisoblagan boshka materiallarda bekitish kabi tasviriy san`at texnikasi turlarining biri bo’lib xisoblanadi.

«Applikatsiya» tushunchasi uzining xossalari va materiallarining fakturasi buyicha xar xil bajarish texnikasi uxshashligi asosida birlashgan badiiy asarlarni yaratish usullarini uz ichiga oladi. Applikatsiyani bajarish texnikasida kullaniladigan xar bir material unga aniq ta`sir etuvchi xususiyatlarga ega buladi. Masalan, qog’oz, somon, kuritilgan usimliklar, kayin kobigining ustingi kavati umumiy turga (fonga) xar xil elimlar bilan epishtiriladi: odatda gazloma, teri, jun, kigiz tikiladi, ok terak tuki, baxmal qog’ozga elimsiz epishtiriladi.

Applikatsiya- tasvirlashning realistik asosini saklab kolishi badiiy ishlarning kuprok oddiy tushunarli usullarining biri. Bu applikatsiya fakatgina bezash ishlarigagina emas (kurgazmali kurollar ishlashga, xar xil uyinchoklarga, bayrokchalarga, bayram sanalariga bagishlangan sovgalarga, xar xil kostyumlarni bezashda, gazeta, stend va kurgazmalarni bolalar bogchalarini bezashda) rasm, panno, naqshlar solishda va boshka bezash ishlarida keng kullaniladi. Applikatsiyaning asosiy belgisi suldar turida berish, obrazni bir shaklda kursatish, rang doglarini bir xilligini umumlashtirish bo’lib xisoblanadi. Applikatsiya ayrim kurinishlaridan turadigan-narsa (yaprok, shox, yog’och, zamrak, gul, kush, xayvon, joy, mashina, odam va boshkalar) bulishi:

-xarakatlarning, vokealarning yigindisini anglatadigan syujet (Masalan yangi yil salyuti, bizning vatan, bogcha bogi, kushlar uchib keldi va boshkalar):

-har xil narsalarga naqsh uyish, kashta solishni uz ichiga oladigan «Dekorativ»- applikatsiyalar bulishi mumkin.

Applikatsiya ustki kiyim, oyok kiyim, uyga va kundalik buyumlariga xozirda kuplagan xalklarda bezash, bezash ishlarini eng kadimgi usullarining biri bo'lib xisoblanadi. Applikatsiyaning paydo bulishi uxok utmishlarga tegishli bo'lib ularga xayvon, terilaridan ishlangan kiyimlarning ipak tikishlari aniq isbot bula oladi. Shu bilan bir katonrda eski gilamlar, gazlomalar, ota-bobomizdan kolgan esdaliklarni misolga kilib keltirishimiz mumkin.

Applikatsiyaning rivojlanish jaraeni kadimgi Osie, evropa, Amerika madanyati esdaliklarining kurinishlari va xar xil xalkdar va davrlardan bizgacha saklangan applikatsiya namunalarida aniq kurinadi. Ibtidoiy jaoma tuzimida odamlar orasidagi ijtimoiy tengsizlikning yuk vaqtida applikatsiya ishlarida kullaniladigan materiallarda xamma ten foydalanishga imkoniyat bo'lgan. Keyin applikatsiya boshkada badiiy san`at turlari kabi yangi ijtimoiy sharoitlarni boshidan kechirdi. Martabali insonlarga bagishlangan naqsh, kashtalar uzining murakkabligi va ularga ishlatiladigan mtareilalarning kimmat baxoligi bilan ajralib turadigan edi.

## 1.2. Tarixdan ozgina so'z

Bizning eramizgacha (V-III asrlar) saqlanib kelgan Pazirik qurg'oni applikatsiyasi yuqori badiiy mahorat bilan ishlangani ma'lum. Qabila daxolarining qabrstonlarini qazishda 5 qurg'ondan har xil narsalarni ishlagan (sakana) tobut topilgan. Qurg'onda 10 ta ot siymosi mangu toplash soldirg'a yog'ochdan, teridan va kigizdan ishlangan narsalar saqlanib qolgan. Ikki kurashuvchi qanotli hayvon terisi applikatsiyasi bilan bezalgan ot egarlari topilgan. Bug'i boshi turidagi teri bulaklaridan ishlangan ixcham idishlar, badiiy san`at qatoriga kiradi. Avvallari sariq, jigar rangda buladigan qayin qobiqlari orqali ingichka yulaklar bilan tobutning barcha tashqi qavati elimlangan. Tobutning yon tomoni teri bulaklaridan ishlangan xuroz rasmi bilan bezalgan 30 kv mertga yaqin keladigan oq chodirga rangli naqsh yopishtirilib chiroyli qilib bezab tikilgan.

Tasvirlashning sxema va chama bilan ishlanishiga qaramasdan ularning hayron qoladigan mahorat bilan insonlarning, qushlarning, hayvonlarning aniq xarakteristikasi berilgan. Qadimgi vaqtlarda axyonlarni mahorat bilan tasvirlagan va bu sharoitda odamlar juda botirlik kursatgan. Kuchmanchi qabilalarning badiiy madaniyati darajasi uning harakat dinamikasi nozik bezak sezgirligi mahorat bilan tasvirlab berilgan.

Har xil xalqlar tasviriy san`at ishi uchun turli materiallardan foydalanadi. Masalan ot egarini bezashda uzining kurinishi tomonidagi noyob oltin sariq rangdagi buta qobig’idan foydalaniladi. G’arb tuvinlilari bezash ishlarida avvaldan oq kigizlarni foydalanib kelingan. Buni ular bosh kiyimlarini bezashda keng foydalanilgan. Gazlamalar bilan tasvirlash ishida choy xaltacha, tuz va boshqa xaltalarni, porxon kosyutmlarini bezagan.

Avvalgi birlashgan millatlar etnografik muzeyida porxonlarni qizil jundan ishlangan peshona tamg’asi ilinib tur. Uning yuzi rangli gazlamalar, bulaklar orqali tasvirlangan.

Qirg’izlar, kalmaklar, mug’ullar telpaklarini applikatsiya orqali bezaydi. Kashta, naqsh solish orqali tasviriy san`ati kuchib yurish dasturlariga xos xamda kiyadigan kiyimlar va boshqa buyumlar sharq, Boshkurt rayonlarida keng urin olgan. Ayniqsa bu tasvirlash usuli ayollar oyoq kiyim bezashda qullanilgan. Bezashda asosiy element bo’lib yurak, shox, tulqin, egri tishlar normasidagi figuralar qabul qilingan. Nanaylar, ul`chilar, nivxiylar, uadegeylar va boshqa oz sonli xalqlar qadimgi neolit davriga borib taqaladigan yuqori badiiy madaniyatga ega. Bu madaniyatning asosi ular turgan ulka, tabiyatini turli kurinishlarini ifodalaydigan boy buyoqlardan iborat. Kup yillar davomida applikatsiya faqat Osiyoda emas, balki evropada, Italiyada, Ispaniyada, Germaniyada, Frantsiyada keng qullanilgan. O’rta asrlarda G’arbiy evropada harbiy ishlar va er boyligi qulida bo’lgan qatlam (Ritsarlik) orasida applikatsiya keng tarqalgan. Harbiylarning musobaqasida qabila belgilari-gerblar paydo buldi. Gerblar ikki tomonidan aniq kurinishi kerak bo’lib, applikatsiya yuli bilan naqsh solish kerak buladi. Sitsiliya podshohi Rojer 2 Vizantiya qobiliyatli maxbuslarining tuqish va

hunarmandlarning ayrimlarini applikatsiyag’a uzgacha foydalangan. Sitsiliya junidan qiyib naqsh solish Italiyada keng tarqaldi. Ayniqsa naqsh yuziga baxmaldan solingan - Ispan applikatsiyasini maqtashga buladi. Qadimgi uyg’onish davrida naqsh solish san’ati yaxshi takomillashib kuproq applikatsiyada qullanila boshladi.

# II-BOB. MEHNAT TA’LIMIDA APLIKATSIYANING AHAMIYATI

## 2.1. Applikatsiyaning rivojlanish jarayoni

Applikatsiya ishlari XVI- asrda Italiyada, Ispaniyada cherkov lipaslarida aniq gullana boshladi. Ularda karama-karshi rang birikmalaridan takrolrlanish xarakterli buldi. Kizil, yashil, sarik ranglarning birikishi dasturga aylandi. Masalan, (Germaniyada VII-asrda) kizil baxmalga sarik ipak, aplas kiyindilari bilan aykashtirilgan kalit gerbini soldi, (Frantsiyada XVIII asir) yumshok stolni kresloni shisha rangli baxmalga sarik ipak gazlomalari materiallari bilan naqsh solib tashlash, kalta tikish (Italiyada XVII asir). Lavrentiy auleni kizgish baxmalga, sarik gazlozmaga yashil tur berib tasvirlash, turlanishlar rivojlanib boshladi. Sung gazlomadan applikatsiya ishlash urniga qog’oz applikatsiyasi kirib keldi. U qog’oz ishlab chikarishining paydo bulishiga boglik buldi. Applikatsiyaning yangi turi sifatida qog’ozdan ishlangan siluet- manzara berish san`ati xisoblangan. Siluet (kurinish, sulder) tasvirlash san`atining kadimgi turi sifatida eramizdan oldingi VI asrda paydo bo’lgan Gretsiyada afsona suz paydo bo’lgan: Dibudtarning kizi uyida devorga uzining sevgan yigitining rasmini chizgan. Shu vaqtdan boshlab Grek vazalarida kora ezik profil`dagi (en tomon kurinishidagi) figuralar paydo buldi. Manzara-kurinish san`ati Frantsiyada rivojlana boshladi. Lyudovik VI saroyida Et`en Siluet bosh moliya raxbari buldi. U saroyni boshkarib kolush uchun ishlatiladigan xarajartlarni kiskartitish xakidagi bir kancha isloxotlar yuritdi. Yukori katlamdagi odamlar bosh boshkaruvchining btsu ishiga miskillab kulib, uni otstavkaga chikarishiga majbur kildi. Uni tinchlantiradigan birdan-binr ish u bulsa qog’ozda uzi xoxlagan rasmlarni chizish ishi bo’lib koldi. Shunday kilib, «SILUET» xakidagi afsona shunday pado buldi. U xozirgi kungacha etib keldi.

Rossiyada manzara XVIII asrning oxiri XIX asrning boshida dasturga aylandi. Manzarani solib fakat rassom kasbini egallarigina emas, balki dvoryanlarda kunikib ishlaydigshan san`atiga aylandi. Rossiyada evropaga dong chikargan ikki manzarachi F.Sido va F.Arting yashadi. 1799- yili «ekaterina II va

uning karomogidagi yakinlari xakidagi kitob bosilib chikda. Undagi 1h0 dan oshgan uyib ishlangan rasmlarni, F.Sido ishlagan. Bular yukoridagi katlamdagi mirza, xakamlar, aslzodalar vakillarining rasmlari.

## 2.2. Applikatsiya san'atini o'rganishdagi chet el tajribasi

XIX asrning birinchi yarmida eng yirik siluet ustasi graf F.P.Tolstoy (1783-1873) buldi. Uzining uzok xaeti davomida Tolstoy 2000 dan oshgan xar xil ishlarni ishladi. Uning Ermitajda 50 silueti Davlat rus muzeyida, 20 Moskva tarixiy muzeyida shuncha silueti bor.

F.P.Tolstoyga professional-rassom bulishga karshi turgan karindoshlari (tugishganlari) oldida katta sinovdan utishga tugri keldi. e.F.Yunge, F.P.Tolstoyning kizi akasi xakida xush kungillik bilan esga tushiradi.

Tolstoy silueti katta badiiy ukstalik, maxorat bilan ajralib turadigan edi. Kupincha rassom texnikaviy usullardi suvni va daraxt yaproklarini tasvirlash uchun kiyib kesish va tomizish usullarini maxorat bilan foydalangan.

Birok applikatsiya san`ati bilan fakat professinoal rassomlargina shugullanib kuymagan. Xalk san`ati ustasi Kapitan Akakiy professional rassom emas edi. U XIX asrning 60 -yillarida Teplyakovo kishlogida tugilgan. 10 eshidan boshlab qog'ozni kiyib cherkov va uning minoralarani solgan. Uzi sevgan bu ish xaetining oxirigacha barcha bush vaqtini shu ishga sarfladi.

Kapitan Akakiyning ishlarining mazmuni xar xil kurilishlar, daraxtlar, kushlar, odamlar, belgi yog'ochlar uning ijodida: birinchi navbatda murakkab uyma naqsh solyish, uy buyumlari, yog'ochlarni bezash va boshka chiroyli kurinishlari kurishga buladi. Applikatsiya san`atiga chet el rassomlari xam katta dikkat karatgan.

Frantsuz rassomi Anri Matissaныn (1869-1954) uziga xos kizikli applikatsiyalari bor. Matisanning turli meroslari bo'lib, pero, kalam, kumir bilan ishlangan rasmlari, metalldagi naqsh (ofort), toshga naqsh uyish(Litografiya), linoleumga uyma naqsh solish (gravyura) xarf kesadigan mashina, kitoblarni

rasm bilan bezash ishlari bo'lib Aniri Matissa asarlarining uning qog'ozdan ishlangan applikatsiyalarda aniq kurindi.

Matiss ok qog'oz betlarini ochik rangda guash` bilan buesh, keyin rasm buladigan qog'ozni kesa boshlagan. Uning kesindilarida rasm buladigan manzara yuk. Bosh rolni rang bajaradi. Matiss ranglar birp-biriga karama-karshi emas, balki bipr-`biriga xos bulishi kerak deb xisoblaydi. U narsalarni eki tabiat xodislaarini tasvirlashda rang, narsalarning turlaridan bogliksiz tomoshabinlarni xissiga ta`sir etuvchi kuchga ega buladi. Byuundan tashkari rang kanchalik oddiy bulsa, sezish organi shunchali kuchli ta`sir kiladi. U xar bir applikatsiya ishida 4-5 rang tanlab naqshlarning xakikiy tusini boy kilib kursata oladigan edi. Matiss kalamga karaganda kaychi katta sezishini shakllantirishini tastiklaydi. Qog'ozdan kiyib olingan kesindilarni eng yaxshi kompozitsiya tuzish, u urin almashtirish, dastlab ularni ilgak, balki keyin elim bilan epishtiradigan edi.

Kupgina asrlar davomida chiroyli naqsh solish san`ati rivojlandi. Xalk ustalari eskiz va manzarasiz - keyin takrorlanmaydigaen chiroyli uyma, kashta naqshlarni soladigan edi. Qog'ozdan kaychi bilan kiyilgan chiroyli kashta naqshlari yangi oxaklangan yog'och uylarning devorlariga va tepasiga epishtirilib chiroyli kilib ishlangan.

Tur berishning farklari xa mbor. Ular kupincha ochi krangda bo'lib keladi. Asosiy shakl xar xil ranglar bilan tuliktiriladi. Kupincha simmetrik topshirik shakllar, kugirchok figuralar, don usimlik yaproklari, papki uyinchoklari (kvyatik gullar) uchrashadi. Kadimgi applikatsiya usuliga yog'ochlar deb ataladigan (tarmoklanib ketgan yog'och shoxlari) naqshdlari, inson figuralari, xurozlar, jiyaklari gajaklangan turli salfetkalar eki jiyaklarini nayza uyiga xos kilib kesib kuyish kerak. Mavzuviy kurinishlara (kiyindiklarda) kishlov tuylarini, bayramlarda, dam olish urinlarini, daladagi ishni tasvirlashni naqshlarda kuprok uchraydi.

Hozirgi vaqtda epishtirish ishida: kaptar - tinchlik simvoli, traktorlar, avtomobillar, yangi motiv paydo buldi. Bularning xammasi xalk san`atining asosiy mazmuni sifatida kabul kilindi.

Kiyish usulining kuprok tarkalgan oddiy turi bu qog'ozni yarimidan buklab, kiyish bo'lib topiladi. Yarimdan buklangan qog'ozni daraxt vaza, kushlar, balki bir necha marta buklangan qog'ozdan- xorovodlar ishlashga buladi. Buning uchun kupincha kaychi bilan ishlaydigan kizlar va aellar rasm ishlamasdan avval shugillanganyu. Qog'ozdan kushlarning, baliklarning, xayvonlarning, usimliklarning arxitektura kurilishlarining oddiy kartinalari ishlangan. Kesindilar devorlarga, derazalarga va devoriy oraliklarga epishtiriladligan bo'lgan.

Ittifokdosh davlatlarda - applikatsiyalar odatdagi buyumlar: teri, kigiz, gazlomalardan ishlanib kengdan tarkalgan.

Bayram applikatsiyalari- vazaga xar xil kompozitsiyadan rangli naqshlar solish, oltin rangdagi bugdoy boshlari, makkajuxori, kungobakar, meva, xurozlar, xayron kolardi kushlar - bularning xammasi xar xil kurgazmalarda san`at konkurslarida kursatilgan.

Applikatsiyaning yangi bir turi bizning xaetimizga kengdjan joriy kilinmokda - bu florizm deb ataladigan san`at janri. Florist rassomlar ajoyib applikatsiya materialini - kuritilgan, kurgok usimliklar, saban, ok terak, ajirik, sarimsok kobigi, sholgom piezi va boshkalarni foydalanishga buldi. Florist rassomlar bueksiz kizikli tabiat kurinishlarini natyurmortlar, portretlar yaratib yangi usulda ikkinchi ranlar dunesini ochdi.

Z.A.Mamutova bu tasviriy san`atning yangi turining boshlovchisi bo'lib xisoblanadi. U usimliklarning tabiiy rangini va shaklini uzgartmay kuritish texnologiyasini ishlab chikdi. Usimliklarna tasvirlaydigan florist- rassomlar ishlari barcha shaxarlarda va chet ellardagi «Tabiat va ijodkorlik kurgazmalarida» xamisha muvaffakiyatga erishib kelmokda.

## 2.3. Maktab o'quvchilariga rangli qog'ozda tematik kompozitsiyani applikatsiyada ishlash metodikasi

Maktab o`quvchilariga rangli qog`ozda tematik kompozitsiyani applikatsiyada ishlash metodikasi xayotiga keng joriy qilinib, imoratlarning ichki

yuzalarini arxitektura va badiiy bezashda kurgazmali qurollar ishlash, bayram kostyumlarini, saxnani, devoriy gazetalarni, stendlarni, esdaliklarni bezashda foydalaniladi. Bolalar bog'chasida applikatsiya uchun qog'oz asosiy material bo'lib hisoblanadi. Qog'oz bilan ishlashni boshlamasdan avval, uning uziga xos xususiyatlarini, u qanday materiallardan ishlangiligi bilan tanishib chiqamiz.

Qog'oz qanday paydo buldi? Ming yillar davomida insonlar xat ezadigan materiallar izlab kelgan. Bizning ota-bobolarimiz bu uchun loy va toshdan foydalangan. Tosh va loyning urniga yuzi mumlangan yog'och taxtachalardan foydalanilgan. Ular papirus, ya`ni qamishga uxshagan o'simliklar bilan almashtirilgan. Nil daryosi sohillari papirus o'simliklari bilan qoplanib turgan. Papirus poxolini uzuncha qilib tilib, ularni bir-birining ustiga qalqon tarzli qilib joylashtirib kuyadigan bo'lgan. Ularni elimlab, yog'och tekislagich bilan tekislab kunga quritgan va tutikchaga urab quyadigan bo'lgan. Keyinchalik greklar buni «Biblos» (shundan biblioteka) deb atagan. Papirus qog'ozdan avval paydo bo'lgan, shuning uchun u nemetslarda «Rarier», inglizlarga «rarer», ispanlarda «rarel» deb atalgan. Ruslarning qog'oz suzi italyanlarning «Bambadiya» - paxta so'zi bilan bog'liq, sababi papirusdan so'ng qog'oz ishlab chiqarish uchun xom-ashyo sifatida paxta gazlamasi qoldiqlari xizmat qilgan. Pergame shahrida yozish uchun yana bir material ishlab chiqildi. U avvalgilarga qaraganda zichroq yana mustahkamroq, uning ikki tomonida yozishga boladi. Pergament uchun xom-ashyo sifatida mol va quy terilari xizmat etdi. Pergame papirusdan ancha qimmat bo'lib, uni etishtirish uchun tuliq bir mol va quy podalarini yuq etish talab etildi.

Ayrim kitob - er mulkdan ham qimmat bo'lib, uni devorlarga zanjirlab quyadigan edi.

Yozish uchun eng qulay material bo'lib xisoblangan qog'oz deb ataladigan material topilguncha ko'p vaqtlar yutdi. Qog'ozning paydo bo'lgan vaqtini aniq biladigan bizda xali bir tarixchi yuq. Qog'ozni birinchi marta II-asrda Xitoyda Tsay Lun ishlab chiqqan degan afsona bor. Qog'oz ishlab chiqarish yullarini Xitoyliklar juda sir tutgan. Shunday bulsa ham sir ochilgan VI asrda Koreyada Xitoy usulida qog'oz ishlab chiqqan (qog'oz) Xitoydagidan (ortiqcha) bo'lgan.

Yaponiyada VII asrda ishlab chiqilgan qog’oz sifati tomonidan Xitoyliklarnikidan ortiqcha bo’lgan. Qog’oz endi dunyoning xar xil davlatdlarida sotilib, tarqatila boshlagan.

L.Feyxvangerning «Ispan balladasi» romanida Don Iegurda Kastiliya koroliga bunday deb xabar qiladi: Bizda shunday materiallar bor, siz uzingizning shimol ulkalaringizdan eshitgandirsiz, bu materialga yozish pergamentga yozishda qulayroq, agar uni ishlashning sirini bilganda u pergament ishlashdan 15-marta arzonroq, sizning Taxo sohilarida shu materiallarni ishlashning barcha imkoniyati bor. Shunda sizning yeringizda fan, falsafa, poeziya chuqurroq va bayroq bular edi».

XVII-asrning boshida evropada (Germaniyada), qog’oz paydo bo’lib, shu vaqtda bu erda qog’oz tegirmoni bo’lgan. Qog’ozni mashinada ishlab chiqarish XVII-XVIII asrlar oralig’ida paydo bo’lgan yoki uylab topishdan paydo bo’lgan. Ular untoqlab maydalaydigan Gollandiya apparatroll va frantsiyadagi mexanizatsiya yo’li bilan qog’oz quyish apparatlari. Yangi xom-ashyo yog’och materiallari paydo buldi. Frantsuz fizigi Reomer 1730- yili qog’ozni yog’och materialidan tayyorlash mumkinligini va u yaxshi natijalar olib keladiganligini xabar qildi. Qog’oz evropaga tarqala boshladi. XVIII asrda Rossiyada Petr I-ning farmoni buyicha Peterburga yaqin erda va shaharning ichida Amirolteytsovoga uzoq emas erda bir necha qog’oz tegirmonlari qurildi. Kaluga afsonoaviy Goncherov A.S.Pushkinning xotinini bobosi katta qog’oz zavodini qurdi. Shu vaqtlari Rossiyada 20- dan ko’proq qog’oz ishlab chiqaridgan katta fabrikalar hisobga olindi.

Biroq bu qog’oz muxtojliklarini tulig’i bilan qanoatlantirmadi. Avvalgiday ularni chet ellardan olib keladigan buldi.

Qog’ozdan foydalana utirib, biz uning nimadan va qanday ishlanishini uylaymiz. Qog’oz ishlab chiqarish jarayoni qiyin kechadi. Qog’oz cheti yuq tuqayzorlardan rahimsiz ko’p suvli daryo sohillaridan boshlanadi. Yog’ochlar yog’och kesuvchi joylardan, uzoq yullarga qog’oz kombitanlariga yuboriladi. Bu

erda po’lat tishlar yog’ochlarning tik buyini qisib olib diskali arrasi bor stolga olib boriladi.

Ko’z ochib yumguncha asrlar davomida usib etishgan yog’ochlar metr kesindilarga aylanib, keyin barabanga boradi. Barabanlardan tozartirilgan balans chiqarilgan. Balanslar, konveyrlar orqali ikki zavodga, yog’och massali va sul`fitli- tsellyuloza zavodlariga qarab qalqib boradi. Katta massali zavodiga balanslar 6- tonna yuzida qayragi bor tegirmon toshlarga, difibrirlarga solinib balanslar yog’och masasiga aylanadi.

Sul`fidli tsellyuloza zavodida maxsus mashinada massa maydalanib oq rangdagi tola materiali - tsellyuloza olinadi.

Tsellyuloza o’simlik asosida (asosan mexanik mustaxkamlik va egiluvchanlik xossasini beruvchi xujayrasining devoridan asosiy qismi). Shunday qog’oz tayorlashning birinchi bosqichi xom-ashyoni qog’oz massasiga aylantirish uchun mexanik qayta ishlash bosqichi tugallanadi.

Ikkinchi bosqichi - qog’oz massasining tayorlashni uz ichiga qamrab oladi. yog’och massasiga tsellyulozani, unga xar xil toliktiruvchilarni, masalan, gugurt, soda, oxak, kaolin, tuliq qushadi. Ular qog’ozni oqartiradi, zichlaydi, tekislab bosmaga qulayli xossa joriy qiladi. Jamlovchi materiallardan konifol` elimi kraxmallar, smolalar, qog’ozga sex navlanadi, qog’oz yuzining mustaxkamligini va zichligini orttiradi, ayrim vaqtda qog’ozga belgili rang berish kerak bulsa, buyoqlar qushiladi. Bundan boshqa qog’oz massasi suv bilan aralashtirib, undan sung qog’oz ishlovchi mashinalarga yuboriladi.

Dekorativ so’zi - lotincha so`zdan ”Dekorare” bezash degan ma`noni anglatadi. Bezashni shakllantirish usuli deb ham ataydi. U ornamentliligi bilan ajraladi. Rang real va shartli bo`lishi mumkin. Dekorativlilik ayniqsa applikatsiyalarda o`z ifodasini topadi. Qog`ozdan ishlangan suvinirlarda, korobkalarda, tabriklash otkritkalarida dekorativ applikatsiya chiroyli ko`rinadi. Dekorativ applikatsiyalar bilan al`bomlar, papkalar, stendlar, devoriy gazetalar bezaladi. Bolalar bog`chasining bayram ko`rinishi, milliy ornament motividagi

dekorativ applikatsiya bilan bezash katta ahamiyatga ega. Applikatsiyada rang kabi shakl xam dekorativ bo`lishi mumkin.

Quyidagicha dekorativ applikatsiyalar bo`lishi mumkin:

A) 1 rangdagi qog`ozdan dekorativ applikatsiya yasash

Rangli qog`ozning ikkinchi tomoniga oddiy qalam bilan rasm chizib, tayyorlanib olinadi. Dastlab gul uchun uzun bargni elimlab olish kerak, gulning birinchi qismini elimlaymiz. So`ng ikkinchi gulini, keyin uchinchi qismini elimlaymiz. Bulardan so`ng uzun bargga kalta barngi elimlab, yaprog`ini yopishtiramiz.

B) Ko`p rangli qog`ozdan dekorativ applikatsiya yasavsh

Shakl uch qismdan iborat bo`lib, ularning ranglari har xil bo`ladi. Dastlab qanday bo`lsada qog`ozdan tayyorlash bichib olamiz, qirqamiz.

Rang kabi shaklda dekorativ bo`lishi mumkin. Masalan, Qog`ozdan yoki kartondan ishlangan uychaga deraza, eshiklarini ham elimlashga bo`ladi. Agar uy yoki undan fundament g`ishtidan ishlangan bo`lsa g`ishtlar uzun yo`lakchadan qirqib olinadi. elimlashga bir g`isht ikkinchisidan keyinroq tushadi.

S) Kant elimlaydigan dekorativ applikatsiya

Kant- rasmni jiyak bilan bezash. Har xil ornament, harf, tsifыrlar bilan kant ishlab bezash chiroyli ko`rinadi. Bu erda kant rangini tanlab olish kerak bo`ladi. Masalan, agar naqshda qora rang bo`lsa, qolgan ranglar aniqroq bo`ladi.

Gullar, mevallar, yaproqlar kant bilan bezalsa chiroyli ko`rinadi. Rasmni tayyorlab, uni qog`ozda og`ir narsaning ostiga qo`yib quritish, rasmning chetini qiyib olish, birday kenglikdagi yo`lakcha qoldirib kant deb ataladi. Bunday qilib tayyorlangan rasmlar fonga joylashtiriladi. Har bir detaldagi yaxshi sharoitni topib uni qalam bilan belgilab olish kerak. Dastlab shoxi, so`ng gullari, yaproqlari, mevalari elimlanadi.

2.Naqshning barcha qismini kant bilan bezash

Applikatsiyaning chiroyli chiqishiga yordamchisi (41- rasm).

D) Kant bilan dekorativ- ornament kompozitsiya

Dekorativ-ornamentli applikatsiya har turli geometrik shakllarda bajariladi. Yo`lakchaga, to`g`ri burchakga, kvadratga, aylanaga va boshqalar.

Kant bilan applikatsiya yo`lda bajarilgan dekorativ-ornamentli kompozitsiya badiiy bo`lib chiqadi.

1.Yo`lakcha ichidagi ornament. Ornamentlar cheksiz va cheklangan tarzda bo`lishi mumkin. Cheksiz ornament – lenta shakliga ega bo`lib, vertikal yoki gorizontal yo`nalishda joylashadi. Masalan uchun oboylardagi, tarmoqlardagi ornamentlar shunga misol bo`la oladi.

2.Kvadrat ichidagi ornament –cheklangan ornament bo`lib, uning tomonlarining chetiga joylashadi. 44-rasm. Naqsh to`rt chetiga yoki o`rtasiga joylashishi mumkin.

3.Aylana ichidagi ornament –qayma turida (47-rasm) yoki aylananing markaziga (4h- rasm) tushishi mumkin.

Dekorativ kompozitsiya tuza o`tirib, ranglarning juda ko`p turligigi bo`ldirmaslik kerak.

4.Oval ichidagi ornament. Dekorativ kompozitsiyada bir necha applikatsiyani bajarish usullari bor. Bu oval turda qanday bo`lishi qarab o`tamiz. Harflar, tsifrlar, vinetkalar kant Bilan bezalsa chiroyli ko`rinadi. Ularni qiyib olishda dekorativ qog`ozlar qo`llaniladi.

2.Dekorativ applikatsiyada milliy naqshlar

Milliy ornamentlar dekorativ applikatsiya uchun boy va har xil material beradi. Har bir milliy ornament uchun o`ziga xos xususiyatlarga mos. U xalqning madaniyati tarixi, turmush sharoitlarini, mehnat faoliyatini, qo`rshab turgan tabiat, ob-havo va tabiiy materiallarning xususiyatlari bilan belgilanadi.

Xalq rassomlari ornamentlarning mazmunini real turmushdan oladi. Ular shu ornamentlarni faqat nusxalab qo`ymasdan, uni dekorativ shakllarga solib qayta ishlaydi. Orqada yashovchi xalqlarning milliy naqshlarida archa daraxtlarining, bereza, sosna, ryabina mevalarining, suvun jonovorining figuralarini ifodalaydi. Ukrainada kungabahor, makka, tovuqlarning, Gruziya va Armanistonda uzumning mevalari va yaproqlari, Qirg`izistonda hayvonlarning shoxlari, O`zbekistonda

paxtaning gullari va yaproqlari, Qoraqalpog`istonda  muyiz tarzli naqshlar qo`llaniladi. Milliy ornamentlarni yaratishda asosan o`simliklar, hayvonlar, hayvonotlar, geometrik shakllan qo`llaniladi. Milliy ornamentlar Bilan bezashda kant elimlash usullari, naqshni chiziq bilan siljitish qo`llaniladi. Ular ornament bilan bezash ishini tezlashtirib, osonlashtiriladi.

Bizni o`rab turgan narsalar  simmetirk va simmetrik emas tuzilishga

ega.

Simmetriya  shakl va ranglarning qonunli joylashishi, bunda bir tomon ikkinshi tomonni oyna kabi ko`rsatadi. Simmetrik shakllarga  yaproqlar, gullar, daraxtlar, polizlar, mevalar,  kapalaklarning vaza, idishlar, ko`ylak va boshqalar kiradi. Buni applikatsiyada stilizatsiya deb ham ataydi.

1.Oddiy turdagi yaproqlarga jasmin, olma, shisha, olxo`ri, qora ryavina, lipa, bereza, osina, siren` yaproqlari kiradi. Bu yaproqlarni qirqib  olish uchun qog`ozning rangli tomonini ichiga qaratib, qirqib olamiz. Qog`ozning qayrilgan eridan qora qalam bilan yurgizib, shakl yasab olamiz.

2.Murakkab shakldagi yaproqlar bu ishni bajarish uchun  dub, boyarishnik, zemlyaniqa, roza, kashtan, klyon, smorodina, ryavina akatsiya yaproqlari to`g`ri keladi. Ularning konturini chizib bo`lgandan keyin qirqib olinadi. Ayniqsa roza ryavina yaproqlari alohida murakkab bo`lib hisoblanadi. Ularni ayrim yaproqlardan tuzib olgan yaxshi.

3.To`g`ri va egilgan shoxlarni qirqib olish, to`g`ri shoxlar oddiy turda qog`ozning chetidan yuqoridan pastga qarab qirqiladi. Egilgan shoxni qiyib olish uchun qog`ozning chetidan egilgan tarzda qirqiladi.

4.Har xil shakldagi vazalar, applikatsiyani tayyorlashda har firmadagi vazalar qo`llaniladi. Ular baland, o`rtacha, kichik hajmda bo`lishi mumkin. Vaza ishlash uchun qog`ozdan qora qalam Bilan balandlikni, enini belgilab chiqamiz. Baland shoxli gukker uchun baland vaza, kalta shoxli gullar uchun kalta vaza tanlanadi. Ayniqsa marmar qog`ozdan ishlangan vaza chiroyli ko`rinadi. Shuningdek, marmar qog`ozini bir rangli   qog`oz bilan qurab ishlash, uning garmonik ranglarining uyg`inlashishiga olib keladi.

5.Daraxtlarni qirqib olish, lip, topol, el, bezera, olma daraxtlari qirqib olinadi. Har xil nasldagi daraxtlarni uning tuzilishining xususiyatlari, ayrim belgilari hisobga olinishi kerak. Eng avvala o`tkaziladigan kuzatishlar daraxtlarning yadlab qolishga yordam beradi (uning qismlarini, shoxlarini va boshqalar). Daraxtalrni kuzatish uchun to`qayga borib shart emas. Har bir uyda, uchastkalarda bo`lishi mumkin. Ularni diqqat bilan qarab, bir-biri bilan taqqoslab, o`xshashligini, xususiyatini belgilab olish kerak.

Daraxt qirqib olish uchun dastlab uni qog`өzda solib olamiz, qog`ozning qayrilgan eridan daraxtning balandligini, enini belgilab olamiz.

6.Bir necha qabatdan iborat qog`ozdan shakl qirqib olish (gormoshka tarzda) orqali qiziqarli va foydali qirqimlar ishlashga bo`ladi. Ular bilan bog`chaning bo`limlarini, kostyumlarni bezashga bo`ladi. Qog`ozni bir necha qabatlab qo`yiyu qirqib olish, bir tipli ko`plagan rasmlarni olishga imkoniyat beradi. Masalan, har xil ornamentlar, ko`rgazma qurollar, didaktik va harakatli ijodkor o`yinlar uchun otributlar ishlasa bo`ladi.

Agar rasm simmetrik tuzilishga ega bo`lsa, qog`ozning qayrilgan eridan rasm solinib olinadi. Masalan, archani ishlamoqchi bo`lsak, qog`ozning qayrilgan eridan archaning yarimini ishlasak, 1 butun archa to`qayi kelib chiqadi. Simmetrik emas tuzilishdagi shakllarga mashinalar, kemalar, baliq, qushlar, hayvonotlar kiradi.

II. Ko`p rangdagi applikatsiyani qirqib olish

Odatda amaliyotda biz har xil rangdagi applikatsiyalar Bilan ishlashamiz. Bunday murakkab applikatsiya turini bajarish, rasmni qismlarga bo`lish bilan bog`liq va mos qog`oz rangi tanlab olinadi. Bunda fonni tanlab olishga katta diqqat qaratish kerak. Rangtasvirni bera olishi kerak. So`ng applikatsiya kompozitsiyasi masalasini echib olish kerak. Fonda tasvirlanayotgan predmetni tuzilish qismlari qo`yilib olinadi. Qismlar o`z o`rniga qo`yilsa, rasm yoki applikatsiya chiroyli chiqadi. Bunda fonda qora qalam Bilan nima narsa qaerda elimlanadiganligi belgilab olinadi. So`ng elimlash ichiga kirishamiz. elimlash borishida shakllarni

ketma-ket elimlaymiz. Applikatsiya ustiga og`ir narsani qo`yish yo`li bilan quritiladi.

Buketni har xil gullar bilan ishlashga bo`ladi. Buketning chiroyliligi gullarning soniga bog`liq. Ular hajmi, shakliga qarab, tanlangan bo`lishi kerak. Yirik hajmdagi gullar maydalari Bilan unchalik to`g`ri kelmaydi. Vazalar bir rangda bo`lishi kerak, agar unda yozish yoki boshqa belgilar bo`lsa u diqqatni tortishi mumkin.

Syujet-bu asardagi ko`rsatilgan belgili voqea, sharoit, hodisa. Applikatsiya uchun syujetlarni qanday tanlab olish kerak.Xalqning o`tmishdagi elning, shaharning avvalgi arxitektura esdaliklari syujetli applikatsiya uchun xizmat eta oladi, hozirgi turmushimiz ko`pilik qiziq mavzularning kompozitsiyasini yodga soladi.

Bolalar bog`chasidagi bolalarning hayotida syujetli tomonidan juda boy : «Bizning bog`», «Qushlarni boqamiz», «Sayran». Syujetli applikatsiya uchun badiiy adabiyot keng material tuzib beradi. Badiiy asarlarni tanlashga qo`yilgan talab, ularning mazmunini  applikatsiyada ko`rsatish imkoniyati bilan belgilanadi. Applikatsiya ichida asarda ko`rsatilgan asosiy voqealarni tasvirlashga, applikatsiyaning asosini tashkil qiluvchi badiiy tekst syujetini aniq ko`rsatishga intilish kerak.  Syujetli applikatsiya mavzulari bo`lib otkritkadagi, jurnallardagi, kitobdagi rasmlar xizmat qiladiyu Bunday ishlarda asosan applikatsiya ishlab texnologiyasini takomillashtirish, ularning ijodiy fantaztsiyasi cheklangan bo`lib qoladi. Boshqa applikatsiya turlarida syujetli applikatsiyaning buyumning o`zidan (naturada) solish har xil material bera oladi. Kelajakda ularni kompozitsiya tuzishda foydalanish uchun oimiy turda yig`ib borish kerak. Syujetli applikatsiya kompozitsiya mazmuni tomonidan qushmali bo`lmasligi ham ko`p sondagi personajlar, buyumlar, qismlarning dinamik harakatlari bo`yicha qo`shimcha bo`lishi mumkin. Agar  syujet qo`shmali  (qiyin) bo`lmasa rasm oldin ola belgilanmay qirqib olinadi. Eskiz tayyorlaganda ikki qilib tayyorlangan yaxshi bo`ladi. Birinshisi tekshirib ko`rish uchun, ikkinchi donasidan barcha rasmni qirqib olish uchun ishlanadi. Har bir qirqib olingan rasmni uning rasmli tomonidan rangli

qog`ozning tekis tomoniga qo`yib chizib olamiz, keyin uni qirqib olamiz, undan so`ng barcha applikatsiyani asosiy rangga yig`amiz. Agar eng avval asosiy ranga (fonga) eskiz tushirilgan bo`lsa bu juda engil bo`ladi. Barcha tayyorlangan rasmlarni eskizning ustiga qo`yib, ranglarning uyg`inligini aniqlaymiz. Bundan so`ng applikatsiyani belgili bir ketma-ketlikda elimlab yopishtiramiz va quritamiz.

Agar applikatsiyada simmetriya tuzilishidagi shakllan bo`lsa, ularni qog`ozni buklash orqali (yarmidan yoki bir necha marta), ko`rinishga savodli berish kerak bo`lsa, unga tegishli rangdagi ASTARTIS elimlash orqali, rasmga naqsh kerak bo`lganda, uning oralanini ikki tomonga ayirib ostingi yuziga JIYaK yopishtirish orqali ishlash mumkin.

***Qog`ozdan ishlangan mozayka***

Mozayka (frantsuz Mosaiko muzaga bog`liq deganni anglatadi), tabiiy materiallardan (somon, quritilgan o`simlik, rangli toshlardan, shishadan) ishlangan naqsh asar bo`lib topiladi. Bu materiallar har xil yo`l bilan ohakning, tsementning har xil tarkibdagi qo`yish massasi bilan yanada elim bilan biriktiriladi.

Mozayka joylarni, devorlarni, fontallarni, vazalarni va boshqarmalarni bezash uchun foydalaniladi. Bu ularning qadimgi turi.

Qadimgi Gretsiyada, Italiyada, Vizantiyadagi uncha qimbat bo`lmagan yaltiroq emas rangli toshlardan va shishalardan ishlangan mozaykalar xammaga yaxshi belgili. Mozayka ishi kata moslikni, puxtalikni va mahoratni talab etadi. Ularni eskiz tuzib, qadimgi applikatsiya ishlaganday qilib ishlab boshlaydi. Mozayka uchun eskizni uncha ko`p bo`lmagan sondagi qismlardan turadigan stilga taqlid qilib tuzgan yaxshi bo`ladi. Keyin eskizni asosiy turga joylashtirib, tegishli rangdagi qog`ozni tanlab olib, uni yopishtirishga tayyorlanab qirqib yoki yulib olamiz. Har bir rang kesmalarini o`z oldiga bo`lak qo`yamiz. Keyin asosiy rangdagi eskizning kichkina qismiga elim qilib, tayyorlangan kesmalarni elimlangan yuzaga yopishtiramiz. Bunda kesmalarni kata egna Bilan sanchib yoki qisqish Bilan ishlashga bo`ladi. Shunday asta-seknlik Bilan, rasmning barcha yuzasini yopishtirib, yopishtirilgan qismiga solib chiqishga bo`ladi. Mozayka konturli bo`lib, ya`ni kesmalarni rasmining chetiga yoki butunlay unday sharoitda

uning ichki yuzasida elimlanadi. Mozayka  qadimgi applikatsiya kabi predmetli, syujetli va dekorativ bo`lishi mumkin. Dekorativ applikatsiya har xil geometrik shakllarda : tilkimlarda, kvadratda, aylanalarda ishlash mumkin. Mozaykani bolalar bog`chalarida ichki yuzalarni bezashda foydalanishga bo`ladi.

### *Bezash ishlari uchun qog`ozdan ishlangan applikatsiya*

Applikatsiya Bilan tanishib bo`lib, uni ishlash tajribasiga ega bo`lgandan keyin, bezash ishlarini bolalar bog`chasida, dam olish kechalarida, bayramlarda mehmonlarga taklifnomalarni, kontsert dasturlarini, tabriklash otkritkalarini, qarindoshlarini, do`stlarini tug`ilgan kuni bilan tabriklash ishlarini bezashda qo`llaniladi.Applikatsiyani bezash tajribasini mustahkamlash bolalar bog`chalarida Amaliy ishlarni o`tkazishda qo`llanganligi foydali ta`sir etishi mumkin. Masalan, didaktik, syujetli real ko`rgazmali qurollarni bezashda, har xil stolda bajariladigan o`yinlarda, archani o`yinchoqlar bilan bezashda va ishlashda tajribalar o`tkazish qulayli. Applikatsiyalar tez orada bolalar ertaligi, dramatik o`yinlar, kostyumlar, qo`g`irchoq spektakli uchun naqshlar, ijodiy va xarakatli o`yin qurollari, musiqa darslarini tayyorlashda yordam etadi.  Applikatsiya turida bezalgan devoriy gazetalar, har xil stendlar va ko`rgazmalar, manzilli papkalar, al`bomlar aniq chiroyli bo`lib ko`rinadi.  Applikatsiya bolalar bog`chasining ichki devorlarini bezash uchun juda oson va qulayli. Guruh joylarni bezashda, badiiy asarlar mavzusiga bag`ishlangan, masalan: «Sevimli ertak personajlari», «Bu erda uyning tomida yashaydigan Karlson joylashishi mumkin», «Qizil  shapochka» va bolalar yaxshi ko`radigan «Shoshmay turgin» mul`tfil`mi  seriyasidagi Quyon va Bo`ri, mard Chippolino va Buratino applikatsiyalari bezab turishga yordamlashadi.

Mehmonxonaning kutish joylari, bolalar bog`chasining ayvonlari vazalarga solingan gul va boshqa har xil applikatsiyalar bilan bezalsa juda yaxshi chiroy berib turadi.

### *Bayram kunlarini applikatsiya usulida bezash*

Bayram kunlarini applikatsiya usulida bezashga bo`ladi. Applikatsiya kelajak avlodni estetik tarbiyalashning vositasi bo`lib hisoblanadi. U bolalarning, o`quvchilarning ijodiy fantazitsiyasini rivojlantirishga yordamlashadi. Bezash ishlari mos ko`ngil ocharlarni shakllantirishi kerak. Har bir bayramda bezashning o`ziga xos xususiyatlari bo`ladi. Masalan, Yangi yil bayrami eng qiziqarli bayramlarning biri. Applikatsiyalar joyning devorloarini, vestbyullarni bezab turadi. Qorbobo, qorqiz, to`qay hayvonlari, archa shoxlari sahnani bezaydi, bayroqchalar, qorlar xona ichkarisini, ko`chalarni, archani bezaydi.

Bundan boshqa «O`qituvchilar va Ustozlar kuni» bayrami, Navro`z, h-mart Xotin-qizlar bayrami, bolalarni maktabga kuzatish, 1- iyun` bolalarni himoya qilish kuni, Hosil bayrami, Mustaqillik kuni, bolalar bog`chalarida bayram qilinadi. Har qanday bezash ishi eskiz tayyorlashdan boshlanadi. Eskiz tayyorlashda sahna hajmi, tomashabinlar zali, guruh xonalari, uchastka hisobga olinadi.

Bayramga bog`liq bezash ishlari sifatida portretlar, kartinalar, shiorlar, tsifrlar, sanalar rasmning ayrim elementlari qo`llaniladi. Bolalarning qo`lidag yaratilgan applikatsiyalar vestibyullarni ham kirar joylarni bezaydi.

### ***Maktab o`quvchilarga rangli qog`ozda tematik kompozitsiyani applikatsiyada ishlashda ishlatiladigan materiallar va jihozlar***

maktab o`quvchilariga rangli qog`ozda tematik kompozitsiyani applikatsiyada ishlashda ishlatiladigan materiallar applikatsiya materiallari bo`lib har xil faktordagi sintetik va tabiiy gazlomalar tekis yaltiroq, ko`kimtir vat eri momiq kigizning eng sifatli navlari xizmat etadi.

Applikatsiyaning asosiy rangi ipak baxmal gazloma sukno teri bo`lishi mumkin. Asosiy rang applikatsiyaning o`ziga qaraganda zich bo`lishi kerak. Agarda rangi bo`yicha to`g`ri keladigan gazloma bo`laklari topilmasa ularni bo`yoshga kraxmallashga bo`ladi. Shu bilan bir vaqtda iplarni ham bo`yoshga bo`ladi.

Qirqish va tikish vaqtida gazloma har tomonga ketib qolmasligi uchun uni kraxmallaydi sitetis satin bamaziy gazlomalarni suyuq kartofel` unidan ishlangan elim bilan (qisib quritish ishki tomonidan issiq dazoml bilan tekislaydi) ipak batist shilter sintetik gazlomalarni-baliq elimi bilan qistiradi. Bu uchun quritilgan qiyindilarni taxtaga kerib qo`yish uning ustiga baliq elimi aralashmasi burkitiladi va keyin quritiladi, tekislashga bo`lmaydi (dazmol bilan).

Applikatsiyani ishlash uchun eskizni asosiy ranga tushiradigan yozuv va nusxalash qog`ozlari kerak bo`ladi. Nusxalash qog`ozlari ochiq rang uchun qora rang uchun oq yoki sariq bo`lishi kerak.

Jihoz applikatsiya ishi uchun murakkab bo`lmaydi. Uchlari SUYIR va egilgan katta va kichik qaychilar egnalar, o`ymoklar kerak.

Gazlomalarning applikatsiya ishlash gazlomalarni qirqish va uning chetlari qayta ishlashga o`xshagan belgili tajribaga ega bo`lishni talab etadi. Ishga kirishmasdan oldin buyumning umumiy ko`rinishini belgilaydigan eskiz o`lchamini uning qaerda va qanday joylashganligi aniqlanadi. Ko`pchilik applikatsiya namunasi bo`lib jurnallardagi rasmlar otkritkalar badiiy san`at asarlari naqshlar xizmat qiladi. Ko`pchilik qo`l san`ati ustalari rasmlarni kichiraytirishga yoki katta qilishga intiladi. Rasm chiza olmaydiganlar rasmni belgilangan masshtabda kletkalarga o`tkazishi kerak.Bu uchun rasmlarni teng kvadrat kletkalarga bo`lib, kattalashtirib tushiriladigan rasm qog`oziga shu teng kvadrat setkalarini kattalashtirilgan o`lchamda chizib chiqib rasmmni shu qog`ozga o`tkazadi. Applikatsiya elementlari-gullar yog`ochlar, qushlar, hayvonlar alohida usulda ishlanib ortiq bo`laklarsiz aniq ko`rinishga (kontur) ega bo`lishi kerak.

Eskiz ikki dona ishlanadi. Bu donasi namuna uchun qirqib olinib ikkinchisi applikatsiya elementlarining to`g`ri joylashganligini tekshirib ko`rish uchun saqlanadi. Qog`ozdan tayyorlangan applikatsiya elementlari unga mos gazloma materiallaridan qirqib olinadi.

Buning uchun qog`oz namunalari gazlomaning ustiga qo`yib ularni TIReUISh bilan mustahkamlaymiz, agar figura katta va murakkab bo`lsa, qog`oz namunalarini gazlomaga ko`klab tigib keyin shunga qarab gazlomani tegishli

shaklda qirqib olamiz. Ayrim namunalarni qo`shimachalar AOSIUGA (9-BeT) ya`n bir bo`lak bilan ikkinchi bo`lakni biriktirish uchun birikadigan erni ortiqroq yuborish misal koftani yubkaga qo`shib tikish ichini ortiq ortiqcha yuborish vash u ortiqcha yubkani qo`shib tikish kerak.

Agar naqshda bir xil figuralar bir necha marta takrorlansa gazlomani bir necha marta buklab qog`oz namunasiga qarab bir necha dona qilib bichib olinadi. Figuralarni bichishda ayniqsa yirik figuralarni bichganda bo`yiga yuborish kerak bo`lmasa ular tortilib ketishi (deformatsiyalanishi) mumkin. Qirqilgan figuralarni asosiy rangga joylashtirishda eskizni kerakli eriga qo`yilib asosiy rang bilan figuralarning rangining mosligi, shakli aniqlanadi.

Qo`shib tikishni har xil yo`l bilan olib borishga bo`ladi. Barcha qirqib olingan shakllarni asosiy rangini qo`yib belgilab olamiz. Agar applikatsiya murakkab bo`lib, ko`p bo`laklarda turadigan bo`lsa, unda applikatsiyani to`liq ishlab bo`lguncha belgilashni bo`laklab olib borishimiz kerak.

Belgilangan figuralar katushka ipi bilan aylandirilib tikiladi (mayda tikish bilan). Material qanchalik siljiydigan bo`lsa tikishlarni shunchalik qilib tikishimiz kerak. Qiyalab ko`klangan yaxshi bolasi sababi ipning uchi bu sharoitda materialga mustahkam yopishadi. Applikatsiyaning chetlarini har xil yo`llar bilan tikishga bo`ladi. Qulayli yo`g`onlikda va rangda keladigan ip bilan (ipni ikki marta dastlab bir tomonidan keyin ikkinchi tomonidan rangli egirilgan ip bilan «petelniy», «tambur», «verevoshka» tikishlari bilan) bu usul sachaqlanib ketmaydigan gazlomalar uchun qulayli. Gazlomadan applikatsiya ishlashda boshqada usul – elimlash usuli foydalaniladi. U tekis usuliga qaraganda tez asosan kartinalarni ishlashda gilamchalarni, fannolarni yoki yuvilmaydigan buyumlarni ishlashda qo`llaniladi.

elimlovchi tarkib- gazlomadan applikatsiya ishlashda kartofel unidan ishlangan elim (kleyster). V F -2. Sintetik elim P V A elimlari qo`llaniladi. Rezina elimni foydalanish maqsadga muvofiq kelmaydi. Sababi bvarcha shakllar belgili vaqtning o`tishi bilan o`zgaradi, elimni oz ozdan olib tashlashga to`g`ri keladi. Shakllar qanday elimlanadi. Asosiy rangning shakl elimlanadigan o`rniga puxtalik

bilan elim yoqiladi  shaklning o`ziga elim yoqilmaydi. Tayyor shakl o`rtadan chetga qarab kichkina  mato bilan bosilib elimlanadi.

Gazlomadan ishlangan applikatsiyani mustahkamlashdan boshqada yo`li bor. Shakl bo`lib qirqiladigan gazlomaning ostiga qabat polietilen plyonkasini qo`yib bir vaqtning ichida kerakli shaklni qo`shib qirqib olamiz, asosiy rangga poletilen shaklini uning ustiga gazloma bo`laklarini qo`yib ustiga issiq dazoml yurgizib tekislanadi.

Applikatsiya JZIK va o`yli-qirli bo`lishi mumkin. Oyli qirli ko`rinish paydo etish uchun qirqilgan figuralar ostiga paxta mato paralon qo`yamiz. Oyli qirli applikatsiya chiroyli, biraq uvni va tozalab yuvish qiyin bo`ladi. Uni yuvgandan va tozalaganda hajmi va shaklli o`zgaradi.

Kundalik qo`lllaniladigan xo`jalik buyumlari- parda, dasturxon, alachalar, salfetkalar. Bolalar gilamchalari, kichkina sumkalar, yostiqlar, fartuklar, choynak tutqichlari, oshxona qo`lqop va boshqalar applikatsiya ishlashda juda chiroyli ko`rinishga ega. Ayniqsa bolalar kiyimlariga, oyoq kiyimlariga, bolalar bog`chasida o`ynash  burchaklarini ishlashdagi applikatsiyalar juda yaxshi ko`rinishka ega bo`ladi. Applikatsiyalar qo`g`irochok kiyimlarini va ular bilan o`ynaydigan buyumlarni (to`shaklarni, daroshkalarni, salfetkalarni, dasturxonlarni) ishlashda keng o`rin oldi. Applikatsiya  yumshoq o`yinchoqlarni bezashda, bayram kostyumlarini, sovg`alarni, joyning devorini, tepasini chiroyli qilib ishlanadigan naqshlarni  (panno) bezashda qo`llaniladi.

Somondan ishlangan applikatsiyalar cheksiz o`ziga tortadi, ular oltin kabi nur sochib turadi. Kun nuriga har xil burchak yasab tuzilgan applikatsiya o`zicha takrorlanmaydigan chiroyin-oltin ifodasini to`kib turadi. Somondan ishlangan applikatsiya hozirgi zamon joylarining ichini bezashda juda  qo`l keladi. Somondan ishlangan sovg`alar –yoqimli mukofot. Ular rasmlar naqshli yo`laklar kitob qoplari, sandiqlar, ramkalar bo`lishi mumkin.

maktab o`quvchilariga bolalar somondan ishlanadigan applikatsiyalarni engil amalga oshira oladi. Bu ish uchun to`g`ri burchakli  shakldagi buyumlarni joy kvadrat joyning tepasi-     uch burchak shaklidagi elochka elkanli kema bayroqcha

qo`ziqorin yo`lakdan ishlangan yuqori tomoni qalpoq yarim g`ildirakni tanlab olish kerak. Somondan applikatsiya ishlashda (3-4 boladan tashkil topgan) kichkina guruh bilan ishlagan yaxshi bo`ladi.

Applikatsiya xohlagan somonnan ishlangan bo`ladi, suli tariq, sholi, arpa, bug`doy somonlaridan. Har bir yovvoyi o`simliklar- timofeevka kuraniya slepota o`tloq erda o`sadigan myatnik arpaga o`xshagan o`simlik yovvoyi sulida applikatsiya materiallari bo`lib xizmat qiladi. Applikatsiya materiali sifatida hosilni yig`ib bo`lgandan so`ng dalada qolgan somondan ozgina qismi foydalaniladi.

Somonni tayyorlashni yozning oxirida g`allani tuyuklashning oldinda va oxirida oltinday bo`lib sarg`aygan vaqtda ishlagan yaxshi bo`ladi. Somonning o`rtangi qismi –applikatsiya uchun eng yaxshi material. Somonning poxoli g`ildirak ichi buvazaqlarga bo`lingan bo`ladi.

Somoni tayyorlashda uning buvazaklarni kesib tashlash, buvazak orasindagi butun qismini maxus qutiga solib qo`yadi. Ularni saqlab qo`yish kerak, sababi keyin asosiy rang sifatida applikatsiyaga har xil tur berish uchun ulardan foydalanishga bo`ladi. Somonning rangi bir qaraganda hammasi oltin rangda bo`lib ko`ringan bilan ular har xil. Diqqat bilan qaraganda uning 100 turli farqlarini aniqlashga bo`ladi.

Applikatsiya uchun ikki yo`l bilan olinadigan issiq va sovuq usulinda olinadigan somon lentalaridan foydalaniladi.

### *Issiq holida tayyorlash usuli*

Bir tup gazetaning ustiga butun somonlar qo`yiladi. Somonlarning ustidan issiq dazmol yurgiziladi. Issiq dazmol tikken somonlar ensiz somon lentalarini paydo etadi.

Bunday lentalardan ishlangan applikatsiyalar dөnes oyli-qirli bo`ladi. Agar somonni dazmol bilan tekislamasdan avval 60-h0 temperaturadagi issiq suvda ushlab turilsa va u o`tkir pichoq bilan yoki qaychi bilan uzunasiga quyilib ikki

tomonga yozib yuborish issiq dazmol bilan tekislansa, somon lentalari enli va yumshoq bo`lib ishlashga qulayli bo`ladi.

***Sovuq holida tayyorlash usuli***

Bu shu oddiy somonni uzunasiga quyib yon tomonga yozib qaychini ushlaydigan g`ildiraklari bilan qattiq bo`lib tekislanadi. Shunday usul bilan olingan somon materiallari dazmol bilan tegislangan somon materiallariga qaraganla egiluvchan va yaltiroq bo`lib keladi.

***Somonlarga rang berish***

Somonlarning tabiiy ranglari har xil bo`ladi : sariq, yashil, ko`kimtir, qizil ranglar. Agar boshqa ranglar ishlar kerak bo`lsa, unda unga issiqlik berib, qayta ishlaydi, somon lentalari oqartiladi yoki bo`yoladi.

Qo`ng`ir yoki qora qo`ng`ir rang paydo etish uchun kerak bo`lsa somon lentalari uzoq muddatga issiq dazmol ostida turadi. Bu shunday ishlanadi. Katta, gazeta tubining ustiga somon lentalarini qo`yib chiqib ustidan issiq dazmol yurgizamiz. Ranglarning to`yg`inligi dazmolning issiqlik temperutasiga va somon lentalari shunday yo`l bilan qancha vaqt qizdirilishiga bog`liq bo`ladi.

Qora qo`ng`ir rangni paydo etishning boshqacha yo`li ham bor eng avvala tayyorlangan somon lentasini non qolipning (protiven) yoki reshetkaning ustiga solib, issiq duxovkaning ichiga qo`yamiz. Somonning rangini shunday qilib qora qo`ng`ir hattoki qora rangda etkazishga bo`ladi.

Somonni Osh sodasi aralashmasida qaynatsaq, uning oltin sariq rangga, marganets ishqorli kaliy aralashmasida qizil rangga o`zgarishini ko`ramiz. Somonni ochiq ranglarga bo`yosh uchun ochiq qizil ochiq ko`k ranglar gazlomalarni bo`yoq qiladigan anilin bo`yoqlar qo`llaniladi (bo`yosh usuli bo`yosh paketida ko`rsatiladi). Somonni bo`yoshda rangli laklardan suyuqliklardan foydalanishga bo`ladi.

Somondan applikatsiya ishlashda qo`llaniladigan asosiy rang va elimlar.

Somondan ishlangan applikatsiya joylashadigan asosiy rang belgili talablarga javob berishi kerak. Oldi bilan asosiy rang uchun material zich bo`lishi

taxtalar yog`och bo`lagi fanera orqali karton baxmal qog`ozlar kerak. Yog`och taxtachalardan yuzini –bo`yoq qilmay yoki bo`yoq mebel` lagi bilan bo`yoq qilinsa ham bo`ladi. Asosiy rang har xil qora ko`kimtir qizil ko`kimtir yashil qo`ng`ir rangda bo`lishi mumkin. Somondan ishlanadigan applikatsiyada har xil elimlar kozeynli «mars» «B F -2» «unikum» elimlari yaroqli bo`ladi.

### *Somondan applikatsiya ishlash txnologiyasi*

Somondan applikatsiya ishlash bir necha turga ega bo`ladi : buyumli (predmetli), syujetli va bezash applikatsiyalari bo`lishi mumkin. Somondan applikatsiya ishlashda qog`ozdan applikatsiya ishlash qoidalariga tayanib ishlanadi. Biroq kompozitsiya ishlashda somondan ishlangan rasmlarni elimmastan rasmlarning atrofiga keng o`rin qoldirib, kompozitsiyani mayda bo`laklar bilan to`ldirib, uni qiyinlashtirish kerak. Applikatsiyani belgili ketma-ketlikda syujet tanlashdan boshlaydi. Somondan ishlangan applikatsiyalar hozirgi zamon arxitektura qurilishida, qadimgi esdaliklarda tabiiy materiallar orqali juda chiroy berib turadi.

Gildirakdagi ovaldagi yo`laklardagi tutinish buyumlardagi –ko`zalardagi, tuz soladigan idishlardagi, vazalardagi xoxlomsk naqshi alohida ko`zni tortadi. Qushlarning, kapalaklarning, gullarning rasmi solingan naqshlar katta ta`sir ko`rsatadi.

Eskiz tuzish-somondan applikatsiya ishlashning juda mas`uliyatli bosqichi. Buning o`z oldiga nozik erlari bor. Ishning muvaffaqiyatli bo`lishi hər bir somon bo`lagi qaysi yo`nalishga elimlanishiga bog`liq. Shuning uchun eskizga somon bo`laklari elimlanadigan to`g`rilar oddiy qalam bilan avval chizib olinadi.

Eskizni asosiy rangga tushirishda applikatsiya ishlashning mas`uliyatli daqiqalarining biri. Eskizning ortqi bo`laklarida oq qalam bilan yoki quruq bo`rning bo`lagi bilan chiziq chizil chiqadi. Shunday holdav eskizni asosiy rangning ustiga qo`yib oddiy qalam bilan barcha chiziqlar chizib chiqiladi. Asosiy rangga tushirilgan rasmning chiziqlari oq bo`ladi. Ular asosiy qora rangda yaxshi ko`rinib qora qog`oz solinib ishlanadigan applikavtsiyani iflos qilmaydi.Agar

applikatsiya ishlash uchun maxsus asosiy rang ochiq bo`lsa eskizning orqa tomonini qora yoki boshqa rangli qalam bilan chizib chiqish kerak.

Somondan applikatsiya ishlashning eng murakkabi – bu somon lentalarini elimlash bo`lib hisoblanadi. elim qilmasdan oldin ular rangiga qarab ochiq sariq ranglisi-bir o`ringa ochiq qo`ng`ir ranglisi – boshqa o`ringa gungurt qo`ng`ir ranglisi – 3 o`ringa va boshqalar qo`yilib ko`riladi, keyin ularni kerakli hajmda bo`lib eskizning roasmining bir qismi kesib olinadi, uni yo`lagiga qarab qirqib olib elimlanadi, uni quruq qog`ozga ko`chiradi. Undan keyingina somon lentasining qismlarini qistira boshlaydi. Somon lentalarining qiyindilari rasmdan katta bo`lishi kerak. elimlashda ularning orasida SANLAK qolmaslik uchun bir-biriga yaqin qo`yadi. Somon applikatsiyasini qurutishda qo`llaniladigan yuk bosimi qog`oz applikatsiyasida qo`llaniladigan yuk bosimidan og`irroq bo`ladi. Yopishtiruvchi somon lentalari quritilgandan keyin qog`oz rasmining sirtiga chiqib turgan somon bo`laklari qirqib tashlanadi. Shunday qilib tayyorlangan rasmning tashqi tomoniga elim surtilib, asosiy rangga purkaladi va ikkinchi marta yuk bosimini solib quritiladi.

Somon lentialarini elimlashning boshqa ha mturi bor, ularni dastlab qog`ozga elimlab, somon lentasining birini ikkinchisina sanloq qolmaydigan qilib qurashtiradi. elimlangan somon polotnasidan tegishli shakl bichib olinadi.

Tayyor applikatsiyaga uning maydva bo`laklariga kuydirish yo`li bilan har xil tur rang berishga bo`ladi.

Shisha ostiga qo`yilgan va applikatsiyasi shishasiz applikatsiyaga qaraganda yaxshi saqlanadi.

Hozirgi vaqtda gullardan, cho`plardan, yaproqlardan ishlanadigan floristka deb ataladigan applikatsiya keng tanilmoqda. Bu material bilan ishlash maktabgacha yoshdagi bolalar uchun qulay. Tabiat bilan muloqotda bo`lish juda qiziq, foydali va o`ziga tortadi. U ijodkorlik, tafakkur, sezgirlik, mehnatsevarlik, badiiy didni rivojlantiradi. Lipa yaprog`idan olma yokui osina kuzgi yaprog`idan qo`ziqərin, oq terakdan- repka, sabzi ko`kidan terk ishlash uchun kata fantaziya kerak. Tabiat bizga takrorlanmaydigan rang-barang bo`yoqlarni, takomillashgan

tayyor shakllarni inom qiladi. O`simliklar bilan ishlash bolalarda havoda yig`ish va tayyorlashning o`zi ham foydali bo`ladi.

O`simliklarning yil fasllariga va imkoniyatlariga qarab uzluksiz tayyorlab berishga bo`ladi : masalan yasen va xren urug`lari qishda tayyorlanadi, erta bahorda gullarning va yovvoyi o`simliklarning yaprog`ini quritish yozning boshida oq terak tubini, yozning issiq kunlarida, har xil to`qay gullarini, dala va o`tloq erlardagi gullarni, keyinroq- kuzgi yaproqlarni tayyorlashga bo`ladi. Ranglarning ko`pchilik boy turi kuzda uchrashadi. O`simliklarni yig`ish va tayyorlashni kunning xohlagan vaqtida o`tkazishga bo`ladi. O`simliklarni tayyorlashda daraxtlarning yashil shoxlarini sindirib, kerak emas. Kuzda barcha er yaproq bilan burkanadi. Yaproq tayyorlashda xohlagan tabiat bilan meli bog`larda sayr etish, shahardan tashqariga, tabiatga chiqish, turistik sayohat, hammasidan foydalanishga bo`ladi. Material qanchalik har xil bo`lsa, u bilan ishlash shunchalik oson bo`ladi.

O`simliklarni applikatsiya ishlashga tayyorlash har xil : ularni press ostida quritish yoki issiq dazmol ostiga qo`yib quritishga bo`ladi. Prestning ostiga qo`yib quyidagicha quritiladi : o`rash yoki fil`trlovchi qog`ozlar tayyorlanadi. Keyin yaproqni kitobqa o`xshatib yarimidan buklab, undan so`ng bir recha proklatka uchun gazetalar va yuk tayyorlanadi. Proklatka kitobning ustiga va tagiga qo`yiladi.

Agarda yig`ilgan o`simliklar nam bo`lsa, ularni avval quritiladi. Yaproqlarni, cho`plarni, gullarni kitobning ustiga joylashtiradi, ishiga o`simliklar solinggan kitoblarning birining ustiga birini qo`yishga bo`ladi, biroq ularning oralarini gazetadan ishlangan proklatkalarga bo`lib turishi kerak. Eng asosiy proklatkani panera kichkina taxta, uning ustiga 10-15 kg yuk qo`yiladi. Proklatkalarni har kun sayin nam bo`lgan gazetalarni quritilgani bilan almashtirib turadi. Odatda 4-6 stuka ichida o`simliklar to`liq quriydi. O`simliklarni quritish quruq joyning ichida o`tkazilishi kerak. Quritilgan o`simliklarni tayyolashning boshqacha yo`li quyidagicha : bir to`p gazetaning ustiga yaproqlarni qo`yib chiqib ustini bir gazeta bilan bostiramiz. Keyin issiq dazmol bilan tekislaymiz.

Yaproqlar ikki, uch  minut ichida kuritiladi. Bu usul Landish, plenboyarshnik, osopa boshqada dekorativ cho`plarni quritishda yaxshi bo`ladi.

Ko`pchilik o`simliklar quritish natijasida o`zining dastlabki rangini yo`qotadi. Ayniqsa bul sharoit ko`k va oq ranglar bor o`simliklarda bo`ladi. Cho`plarda o`z rangini o`zgartadi. Quritishda rangini yo`qotmaydigan o`simliklarni bilib qo`ygan foydali. Bular lolalar, georginlar, oltin sharlar, fionlar gvozdikalar, shabo, qizil mak, shipovnik. Bu o`simliklarni quritish, cho`p yaproqlarini quritishdan farqlanib turishining  eslatishimiz kerak. O`simliklarning gul yaproqlarida kitobning ichiga solinib, uning  proklatkalari 4, 5soatdan almashtirib turadi.  1-yillik o`simliklar –georginlar, romashkalar, kaledulu (nogotki), violu (apyuta ko`zli), kostyumlarni butunlay quritishga bo`ladi. Har bir gul yaproqlarining ostiga yupkalab bir-biriga tegmasdan paxta solib  chiqamiz. Paxtani saqiyna shaklida gul yaprog`idan ostiga solib ustingi yuziga o`zagining qir atrofiga solib chiqamiz.  Pachak guli, arslon  yutqunchagi (livizev) gullarini quritishda, uning ichki tomonini kichkina paxta bilan to`ldiradi.

Ochiq siren, floks, gortenziya gullarini quritishda ularni bir-biriga ajratib ishlaydi, kompozitsiya tuzganda ularni tabiiy shaklda yig`adi. Quritilgan o`simliklarni kitobning ichiga chiqarib olmasdan, quritilgan turida qattiq papkalarda saqlab tavsiya qilinadi. Kitoblarning  orasiga eng bo`lmaganda ikki gazeta solish zarur.

### *Asosiy rang, jihoz va elimlash tarkibi*

Asosiy rang uchun qora yoki to`shak rangidagi, baxmal qog`oz foydalaniladi, masalan, vatman qog`ozida  foydalanishga bo`ladi. Bu rang o`simliklarning eng nozik alohida ranglarini ko`rsatib turadi. Asosiy rang uchun karton, kanop gazlomasini foydalanishga bo`ladi. Asosiy rang  xizmatini oq baxmal tomonida qo`yilgan oq terakning kumush yaprog`i,  deviyasiz, shernovenlik marina, lapshatnik, loxa, ov quloq, to`qay siyranglari, mati-mashexa, sotrolist. Qizil ko`k yavor xizmat qiladi. Ular kartonning barcha yuzasiga

yopishtiriladi, ayrim asosiy rang uchun makkaning yaprog`i, quritilgan ajriq foydalaniladi.

Applikatsiya ishlashda quyidagi nomi ko`rsatilgan asboblar: qaychi, qisqich, akvarel` kisti, igna ip talab etiladi. Quritilgan o`simliklardan applikatsiya ishlaganda bo`yida dog` qөldirmaydigan kartofel` kraxmalidan ishlangan kleysterdan foydalanishga bo`ladi. Cho`plarning yaproqlarini sintetik elim bilan yopishtirgan yaxshi. Zich yaproqlar kazeyn, rezina va P V A elimli bilan yopishtiriladi. elimlash tarkibini o`simlikning ortqi tomonidan 2, 3 erdan tomizib yoki yupqa etib yoqamiz.

Quritilgan o`simliklardan ishlanadigan applikatsiyalar mo`rt, singich bo`lib, ular engil yuk solishni talab etadi. 2, 3 jurnal, bo`lmasa bir necha gazetalarning o`ziga mahalliy. Ayrim vaqtlarda masalan, o`simlikning turiga mos tanlangan buta shoxlar ip qo`shib tikiladi. Yirik gullarni shunday qilib o`rtadan qo`shib tikishga bo`ladi.

Applikatsiya darslarini natijali o`tkazishda eng dasitlab har bir bolaning ijodkorlik qobiliyatlarining kelib chiqishini ta`minlovchi sharoit (obstanovka) kata ahamiyatga ega.

Applikatsiya darsini o`tmasdn oldin bolalar namuna bo`yicha, ya`ni ekskursiyadan so`ng rasm chizish, model bo`yicha og`zaki turda ertaklarning, hikoya mavzu asosida va mustaqil ijodkorlik fikri bo`yicha ishlar o`tkazilib olinadi.

Applikatsiya uchun 2 latta :

1.Quruq (qog`ozlarni supirish uchun)

2.Nam (qo`lni supirish uchun)

Applikatsiya ishlarni tayyorlashda rahbar material bilan instrumentlar tanlashiga katta e`tibor qaratadi.

**Qog`oz.** Applikatsiyani bajarishdagi asosiy material-bu qog`oz bo`lib hisoblanadi. Rangli qog`ozlar naborida (sotiladigan) ko`pincha qizil, ko`k, yashil, sariq, qora ranglar uchrashadi. Qizil, sariq, ko`k, binafsha, qo`ng`ir va boshqa

ranglar ko`p topila bermaydi. Shuning uchun rangli qog`ozlar olganda uning har xilligiga e`tibor berib olish kerak. Shuningdek, eski jurnallar, daftar, plakatlarni foydalanishga bo`ladi. Ayniqsa barxat qog`ozlaridan apllikatsiya ishlash chiroyli chiqadi. Biroq bunday qog`ozni elimlash qiyinchilik tug`diradi, yana qalin qog`ozga elimlanishi kerak.

**Karton.** Glyantseviy karton yupqa bo`lib, uni qayirib, qirqib, elimlash oson bo`lganligi uchun ko`p qo`llaniladi.

**elim.** Applikatsiyani bajarishda elimning sifati katta ahamiyatga ega. Kantselyar silikat elimi rangli qog`ozni oqartish, sarg`aytirib yuboradi. Dikstrinoy elim yaxshi, sifatli. Poroshokli elimni tayyorlash uchun uni issiq suv bilan aralashtirish kerak. Qotib qolgan elimni Yana suv bilan aralashtirib foydalanishga bo`ladi. Shuningdek, elimni kraxmal va undan ishlashga bo`ladi.

Juda qulayli va yaxshi elim bu sintetik PVA elim bo`lib hisoblanadi. U oq rangli, hidi yo`q, bosmoxonalarda tipografik ishlarda qo`llaniladi. U shisha va plastmassa bankalarda saqlanadi. elim tez quriydi, uning ustiga ozgina suv quyib saqlash kerak. Foydalanmasdan oldin yaxshilab aralashtirish kerak.

**Qalam.** Eskizlarni bajarishda qalam qo`llaniladi. Ular har xil bo`ladi. O`chirgich ish uchun yumshoq o`chirgich tanlab olinadi. Agar rezinka qattiq bo`lsa 3-4 soat kerosinga solib qo`yadi, so`ng quritib qirqib olinadi. Bunday o`chirgich toza o`chiradi, hech qanday dog` qoldirmaydi.

**Qaychi.** Qog`oz qirqish maqsadida yaxshi o`tkir qaychilarni tanlab olish kerak.

**Shablon.** Ko`p sondagi birday figuralarni qirqishda shablon qo`llaniladi. Shablon tayyorlash uchun qog`ozda detalning zarur konturi kerak bo`ladi. So`ng kontur bo`yicha 2 mm qoldirib qirqib olib yupqa kartonga elimlash kerak.

Rangli qog`ozdan ertak, miltifil`mlardagi yaxshi ko`radigan qahramonlarni qirqib olib, naqshlar bilan korobkalarni, suvinerlarni, taklifnoma biletlarini, devoriy gazetalarni bezashga bo`ladi.

Chiroyli applikatsiya- yaxshi sovg`a bo`lib, xonani bezashda qo`llaniladi.

**Qirqib olish.** Applikatsiyani bajarib bolalar qaychini to`g`ri ishlashga, to`g`ri qirqishga o`rganadi. Bolalar oddiy figuralarni belgi qo`ymay chiza beradi, bu qo`l va ko`z harakatlarini mustahkamlab, ko`z o`lchamini rivojlantiradi. Ayniqsa elka girlyanlarini tayyorlash ayniqsa qobiliyat va odatlarni talab etadi. Girlyanda bir tomonli yoki tomonli bo`lishi mumkin.

elimlash. Applikatsiyaning tashqi ko`rinishi asosiy fonga ayrim detallarni elimlar sifatiga bog`liq. elimlash uchun bolalarga mehnat topshirig`ini bajarish borasida o`rgatib boradi.

Keyingi bosqich- doira yoki kvadrattagi simmetrik ornament bo`lib, u har xil shakl va o`lchamlardan turadi.

Yakuniy bosqich- bir-biriga elimlanadigan, mayda detallardan turadigan figuralarni elimlandan iborat.

Applikatsiya ishi yakunlangandan keyin uni tekis erga qo`yib, toza oq qog`oz yopib, og`ir narsa qo`yish kerak. So`ng uni olib, tayyor applikatsiyani ko`rishga bo`ladi.

Ko`p figurali applikatsiya  quyidagi ketma-ketlikda bajariladi.

1.Applikatsiya syujetini tanlash

2.O`lchamni tanlash

3.Kompozitsiya eskizini solish

4.Ayrim figuralarni solish

5.Fonni tanlab, har bir figura uchun  rang tanlash

6.Ayrim figuralarning konturini rangli qog`ozdan  ortgi tomoniga solish

7.Figuralarni qirqish

h.Fonni elimlash

9.Yirik figuralarni fonga elimlash

10. Yirik figuralarga  fonga elimlash

11.Qolgan detallarni elimlash

12.Kartonga elimlash. Okantovka.

Har bir darsda o`qituvchi bolalarni materiallarni sarflashni uni ratsional va bezab foydalanishga o`rganib boradi. Shuningdek xavfsizlik texnika qoidalarini

sifatli bajarish, kesib, tomizib va boshqa narsalar bo`lmasligi uchun sanitar gigienani saqlash.

Applikatsiya ishlarini bajarishda quyidagi mehnat qoidalarini saqlashi kerak.

1.Ish vaqtida diqqatli bo`lish va tozalikni saqlash

2.Kesadigan instrumentlar bilan abaylab ish ishlash : pichoq, qaychi instrumentni o`rtog`iga ushlaydigan tomonidan berish

3.Instrumentlarni kerak erida va qoidalariga mos turda qo`llanish

4.elimni ish stolida  yaxshi foydalanish

5.Ishga o`qituvchining tuzgan rejasi va ruxsati bilan mos ko`rsatmalardan so`ng kirishish

6.Topshiriqni bajarish vaqtida tinch, qulaysiz harakatsizlar amalga oshirish kerak (elimni, qog`ozni tushirib olmaslik)

7.Qoshidagi o`rtoqlariga halakit bermaslik

h.Yomon qo`li bilan ko`zni artmaslik

Mehnat madaniyatining zarur talabi bu ish o`rnida tozalikni saqlash, instrument va materiallarni qulayli  joylashtirish, stolga elim to`kmaslik, materiallarni sarflashda tejamkorlik kerak bo`ladi. Ish o`rnida madaniyatli xulq-avtorning barcha qoidalarini ongli saqlab,  aniq va toza ishlansa, topshiriqni bajarishda ijodkorlikka asos solgan bo`lamiz.

## 2.4.  Applikatsiya darslarni tashkil etish metodikasi

1.Suhbat o`tkazish

2.Amaliy darslar

Darsni rejalatirsa o`tirib rahbarlik, applikatsiya uchun kerakli material, instrument va boshqalar narsalarni to`liqligini xisobga oladi. Dars quyidagi rejada o`tkaziladi:

1.Tanlangan mavzu bo`yicha hikoya o`tkazish

2.Bezash uchun tanlab olingan mehnat ob`ektining shaklini analiz qilish

3.Applikatsiya uchun motiv bo`ladigan mumkin bo`lgan syujetlarni tahlil va ko`rsatish

4. Ish rejasini tuzib olish

5.O`quvchilarning mustaqil ishlari

-Kompozitsiya eskizini tuzib olish

-Koloritti tanlab olish

-Rangli qog`ozning ortki tomoniga ayrim elemnetlarning konturini ko`shirish

-Figuralarni qirqib olish

-elimlash

6.Tayyor ishlarni muhokama qilish

Suhbat o`tkazish

Har qanday yangi ishni bajarishga kirishmasdan oldin suhbat o`tkaziladi. U davlat bo`layotgan siyosiy voqealar, iqtisodiy xayot, tabiatni himoya qilish, badiiy san`at va boshqalar masalalar xaqida bo`lishi mumkin. Suhbat vaqtida rahbar oldagi ishga qiziquvchanlik keltirish maqsadida applikatsiyaga bog`liq narsalarni yadga tushirishni tavsiya kiladi. Suhbat kompoziuiyani, kolotirni tanlab olishga yordam berib, uni mustaqil tushunchasi bilan ifoydalab, ijodkorlik o`yin, fantaziyasini keltirib chiqarishga ko`maklashadi. Masalan : Konstitutsiya kuni xaqida suhbatning rejasini keltiramiz. Rahbar Konstituiya –asosiy qonunimiz ekanligini xabar qiladi. Konstitutsiyada fuqarolarning xuquq va vazifalari, ularning mehnat qilish, dam olish, bilim olish xuquqlari borligini, tabiatni himoya qilish mas`uliyatliligi, xalq boyligini himoya qilish kerakligi haqida aytib o`tadi. Har bir inson o`zini qurshab turgan narsani : ishchi-o`zining o`quv qurollarini, maktab bo`limlarini, kitoblarini va boshqalarni himoya qilishi kerak. So`ng rahbar kartadan o`z mamlakatining joylashishi, boshqa shaharlar haqida ma`lumot beradi. So`ng rahbar yurtimizning gerbi, bayrog`i, gimni bor ekanligini eslatib o`tadi.

So`ng o`qituvchi applikatsiya yo`l bilan bajarish kerakligini tavsiya etadi. Ishni bajarishda boshqa mamlakatlarning bayroqlarida ko`rsatmalarini ishlashga bo`ladi.

Suhbat vaqtida bolalar gerb, bayroq orqali yurtimizning boyliklarini, territoriyaviy joylashishi haqida esga tushiradi. Bayroqdagi ranglar nimani anlatadiganligini esiga tushiradi (osmon ko`k-ochiq osmonni anglatadi, oq-paxta boyligini, yashil-tabiatni, qizil-tomirdagi qonni, 12 yulduz-12 shaharni, oy-tinchlikni anglatadi).

Suhbatdan so`ng bolalar har davlatning bayrog`ini,  applikatsiya usulida bajarishga kirishadi. Rahbar ish stolining tayyorligini, kerakli narsalarning bo`lishiga e`tibor berib, ishda xavfsizlik qoidalarining saqlanishini eslatadi, elim bilan ishlashda tozaliqni saqlash kerakligini eslatadi.

Amaliy dars.

Applikatsiya ishlarini shartli turda 2 bo`limga bo`lishga bo`ladi.

1) Naqshni tayyorlash
2) Bajarish

Birinchi bosqichda figuralarni tayyorlash, qirqish, asosga (fonga) o`rin tayyorlash elimlar amalga oshiriladi. Bu bevosita rahbarning nazorat qilishida bo`lib o`tadi.

Ishning ketma-ketligi quyidagicha :

Bolalar bor elementdan turadigan naqshni diqqat bilan ko`radi (kvadrat yoki uch burchak) ayrim detallarning rangli uyg`unlashini muhokama qiladi, tanlangan figuraning rasmini soladi, shablon ishlaydi (rangli qog`ozning ichki tomoniga) bir-ikki figurani qirqadi, qolganlar bo`lsa fonda yordamchi chiziqlar chizadi, elimni yupkalab surtib, o`zining o`rniga elimlaydi. So`ng barcha figuralarni elimlab, naqshni solish yakunlanadi.

Rahbar ish vaqtida bolalarni nazorat qilib, ularga maslahat beradi, qurollardan to`g`ri foydalanish qoidalarini, ish harakatlarining to`g`riligini ko`zdan o`tkazadi.

Keyingi darsda o`qituvchi bajarilgan ishni muhokama qilgandan so`ng o`quvchilarga tanish figuralardan rang tanlab naqsh solishni tavsiya qiladi. So`nggi darslarda o`qituvchi bolalarni mehnat o`rnini bezashda qo`llaniladigan naqshlarni tuzishda yangi figuralar bilan tanishtiradi.

So`ng o`quvchilar bilan  bir qator amaliy qobiliyatlarga ega bo`lgandan so`ng, rangga, o`lchamga, o`zgarishlar kiritib, syujetga qo`shimchalar kiritib, so`ng mustaqil applikatsiyalarni bajarishda eskizlar tuzishga ruxsat etadi.

Ayrim rahbarlar o`quvchilarga ertasiga darov mustaqil topshiriqlar beradi. Bunda bolalar murakkab naqsh va syujetni birdan tanlab olishga harakat etadi.yu Bu narsaga bolalarda etarli odat va qobiliyat oz bo`ladi. Applikatsiya to`g`ri emas, figuralar yaxshi elimlanmagan bo`lib chikadi. Murakkab shu bilan birga ishni iflos bajarish o`quvchilarda faollik bilan qizig`uvchanlikni pasaytiradi.

Bolalarning yoshiga mos oddiylik va qulaylik – o`rab turgan atrof muhitdagi go`zallikni tushunish va o`qitishning asosi bo`lib xizmat qiladi.

Ish vaqtida asta fonda ogohlantirish orqali rahbar barcha bolalar bilan birga ishlashadi. Sababi bola eshitib, boshqaning yuborgan xatonsini yubormaslikka, yaxshi tajribani qaul qilishga harakat qiladi.

Ayrim bolalar ishni chala, qog`ozlarni g`ijimlab, iflos ushlaydi. Shunday sharoitda jazolash, qattiq gapirish yordam bermaydi.

Applikatsiya toza ishning asosida bolalarning kamchiliklarini ogohlantirish mehnatga chidamlilik bilan tarbiyalash, darsdan darsga ish ishlashning to`g`ri usullariga o`qitish yotadi.

Ayniqsa bolalarning ishlarini xamisha analiz qilish, orqada qoluvchilarni belgilab olishga yordam beradi. Ko`rgazma tashkil qilishga bo`ladi. Bunda bolalar bir-biri bilan tajriba almashadi. Buning asosida o`z vaqtida yakka yordam ko`rsatish yotadi.

### *Applikatsiya darslarida ijodkorlikni rivojlantirish*

1.Bolalarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish hozirgi vaqtda katta ahamiyatga ega. Bizning jamiyatimizda faqatgina savodli ishchilar bilan birgalikda o`z ishini tez, sifatli, chiroyli, ijodiy ishlaydigan mutaxassislar kerak.

Ijodiy jarayon ko`pchilik omillarga bog`liq. Bolalarni bir narsani to`qib chiqarishga, yaratishga zo`rlash mumkin emas. Har bir bolaning shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish bu o`qituvchining vazifasi.

Applikatsiya ishlarni bajarishda bolalarni ijodkorlik bilan ishlashga o`rgatish zarur. Bir narsalarni qo`shimcha qilish, rangga, naqshning o`lchamiga o`zgarish kiritish, yangi naqshlarni o`ylab topi shva boshqalar.

Geomterik figuralardan oddiy naqshlarni qirqish, ularni joylashtirnish (kvadrat, uch burchak, poloska) darsning birinchi bosqichida bajariladi. 11h-rasmda kvadrat va boshqa figuralardan ishlangan naqshlar ko`rsatilgan. Shunday oddiy figuralardan yana boshqa rangli va kompozitsiyadagi naqshlarni ishlashga bo`ladi.

Birinchi naqshlar to`g`ri chiziqning ichida bajariladi. Shu figuralardan belgili maydonni to`ldiruvchi naqshlar tuzishga bo`ladi. Geometrik naqshlar bilan korobka, al`bomning sirtlarini bezashga bo`ladi.

Ayniqsa o`quvchilar davom ettirayotgan naqshlarni kata qizig`uvchilik bilan bajaradi. 127-132- rasmlarda kema, mashina, raketa, samolet va boshqa kvadrat, uch burchak, aylanalardan ishlangan. Applikatsiyani ayrim detallar bilan to`liqtirish orqali bolalar kompozitsiya odatlarini takomillashtiradi.

Ayniqsa gilamlarni bezashda geometrik figuralardan naqsh tuzish ijodkorlik munosabatda qiziqarli. Bunday ish tafakkur faoliyatini rivojlantirib, aniq o`lchamni va ijodkorlikni talab etadi.

Aylana va kvadratlarni qirqib har xil gullarni o`ylab topishga bo`ladi. Gul va yaproqlarning shakllarini o`zgartib, unga vaza ishlab, buket tayyorlab, uni bezash maqsadida kompozitsiya tuzishga bo`ladi.

Shuning bilan birga quruq yaproqlardan applikatsiya ishlashga bo`ladi (147-14h-rasmlar). Har bir ishni ongli mustaqillik bolalarnging ijodkorligining,

fantaziyasining asosining shakllanishiga yo`l ochiladi. Darslarning birida o`qituvchi uy xayvoni hisoblangan xo`roz-tovuqning applikatsiyasi solingan jadvalni qo`llanadi. So`ng o`qituvchi tovuqning rasmini qanday chizish kerakligini ko`rsatadi. «Manovi tanasi, bo`yni, boshi, quyrug`i, oyog`i, qanoti». Endi ko`zini, tumshug`ini, kakilini, soqolini solamiz. Tovuqni qanday ketma-ketlikda chizish kerak deb o`qituvchi bolalardan so`raydi. O`qituvchi bolalarning biriga eskizni qanday chizish kerakligini iltimos qiladi. Tovuqning eskizini shtrixlarsiz konturli chiziqlar bilan bajaradi. Bolalar tovuqning eskizini o`zlari yoqtirgan sharoitda ishlashi mumkin. Fon uchun osmon ko`k rang qo`llaniladi. Applikatsiya bajarilishi kerak bo`lgan qog`ozning o`lchami tovuqning hajmiga bog`liq bo`ladi. Ayrim detallarning elimlanishini o`qituvchi qanday ketma-ketlikda ketish kerakligini ogohlantiradi. Eskizni solib bo`lib, fon tayyorlab bolalar tovuqning applikatsiyasini bajarishga kirishadi. Unga har xil detallar qo`shadi : zabor, cho`plar, daraxtlar, tovuqxona, quyosh, donlar, hashoratlar va boshqalar. Shu mavzuga ishlangan applikatsiya juda qiziqarli va har xil bo`lib chiqadi. Applikatsiyaning birida tovuq donni eb, ikkinchisi chaqirayotganligini ifodalashga bo`ladi.

Ayniqsa geometrik figuradan dekorativ hayvonlar ishlash ko`pincha ijodkorlik baxsh etadi. Darslarning birida o`qituvchi kvadrat, uch burchak, oval, doira o`xshagan geometrik figuralardan tashkil topib, mul`tfil`m va kitoblardagi qahramonlarning rasmini ishlashni tavsiya etishga bo`ladi. Topshiriq bolalarni xayron qoldiradi, qiziqtiradi. Dekorativ hayvonlar, qushlar, hashoratlar applikatsiya usulida chiroyli chiqadi. Bu narsalarni qo`ldan yasash bolalarga fantaztsiya etish, har xil syujetlarni o`ylab topish, diaolog tuzishga imkon beradi.

Darslarning birida rahbar bolalarga dekorativ qushlarning applikatsiyasini ko`rsatib, applikatsiya syujetini o`ylab topishini tavsiya qiladi. Masalan «Kimning suyagi» degan applikatsiyani ko`rsatadi.

Bo`sh vaqtida bolalar geometrik figuralardan ishlangan hayvonlar, qushlarning eskizini o`ylab topadi. Bu ish bolalarga o`ziga tanish bo`lgan ob`ektni stili, umumiy turda ko`z oldiga keltirishga yordam beradi.

Ayniqsa shaxsning ijodiy rivojlanishiga fantastik syujetlar asos soladi. «Fantastik gullar» degan mavzuda panno tayyorlash darsi qiziqarli o`tadi. Bolalar ijodiy fantaziyasini ishga qo`shadi. Ular kata qanoatlanish bilan ertaklardagi gullarni o`ylab topadi. Rahbarning vazifasi bolalarning bu o`ylarini amalga oshirishga yordam berishdan iborat. Bolalar bilan birga har bir bayramga bog`liq tabriklovchi otkritkalar namunalarini ishlashga bo`ladi.

Darslarning birida bolalarning qizig`uvchanligi bo`yicha yo`naltirish kerak. Ayrim bolalar tabiat, qushlar, hayvonlarni chizganni yaxshi ko`radi, boshqalar texnika, samolyot, mashinalarni chizishga qiziqadi. Ularga o`zlarini qiziqtirgan mavzular bo`yicha eskiz ishlab so`ng applikatsiya bajarish tavsiya qilinadi.

Ayniqsa yaxshi ko`radigan va ertaklarning qahramonlarini applikatsiya usulida ishlash qiziqarli o`tadi.

Darsning oxiorida yaxshi ishlar ko`rgazmasi tashkil qilinadi. Ularning mualliflari o`z ishlari, orzulari, kasb tanlash haqida aytib beradi.

Hozirgi vaqtda bizni o`rab turgan texnikaning tashqi turiga katta talablar qo`ymoqda. Ular mashina, avtomat, xayotiy narsalar. Odamlarni tevarakdagi hamma narsalar o`zining chiroyliligi, yaxshi shakli, rangi, tozaligi bilan zavqlandiradi. Mashinalar, hayotiy predmetlar injenerlarning dizaynerlar bilan (rassom, konstruktor) birgalikda ishlashi orqali shakllantirib bormoqda. Ular estetik va texnikaviy tomonidan takomillashgan mashinalarni ishlab chiqmoqda.

Estetik didni tarbiya mehnatga o`qitish darslarida va darsdan tashqari to`garak ishlarida davom ettiriladi.

Dastlabki badiiy qurilish asoslarini qo`llanib, o`quvchilar kartondan ishlangan mashinalarni tayyorlab, uni applikatsiya bilan bezashga o`rgatadi.

Texnikaviy modellashtirish ishining boshida rahbar bolalarni xalq xo`jaligida qo`llaniladigan mashinalar bilan tanishtirib, uncha katta bo`lmagan suhbat o`tkazadi.

Avtomobil, traktor, samolyot, yuk kran, kombaynlar, stanoklar odamga tabiatni o`zgartirishga, kanallar, temir yo`llar, Yangi shaharlar tuzishga, ko`mir, neft` etishtirish, qishloq-xo`jalik madaniyatni takomillashtirish, odamlarning

ishonchli yordvamchilari bo`lgan ko`p quvvatga ega, Yangi mashinalarni shakllantirishga yordam beradi. Biroq odam hamisha mashinaning ishonchli bo`lishi bilavn birga chiroyli bo`lishiga tirishgan.

Har qanday mashinaning applikatsiyasini bajarish uchun uning eskizini chizishdan boshlanadi.

Texnikaviy modellashtirishga applikatsiya yanada emotsional, bolalarning badiiy imkoniyatlarining rivojlanishini kengaytiradi. Oddiy qurilish faoliyatinining o`zi bolavlarning darsga degan qizikuvchanligini orttirib, mustaqilligini oshishiga, o`zining fikrining tug`ilishiga  yordam beradi.

Qurilish asosi va qurilish-badiiy san`at odatlarining rivojlanishi shaxsning shakllanishi o`zining katta ta`sirini tekkazadi. Rahbar bolalarga topshiriqni bajarishning yo`llarini mustaqil izlashga, kompozitsiya, kolorit yasab, o`zining syujetini tuzishga, kamchiliklarini tuzatishga o`rgatish kerak.

# X U L O S A

Men o`zimning bitiruv malakaviy ishimni «O’quvchilarga rangli qog`ozga tematik kompozitsiyani  ishlashni o’rgatish metodikasi» mavzusini tanladim. Bu mavzu hozirgi kunning eng dolzarb mavzularidan biri bo`lib hisoblanadi. Hozirgi vaqtda maktab o`quvchilarini tarbiyalash, mutaxassislar tayorlash masalalari Respublikamizning  mustaqilligi sharofati bilan davlatimiz bugungi kunda ta`lim sohasidagi vazifalar «Ta`lim to’g’risida» gi  Qonuni, «Kadrlar tayorlash milliy dasturi» da belgilab berilgan.

Applikatsiya haqida bilim va ko’nikmalar mehnat ta’limi darslarida bolalarning ijodkorlik qobiliyati, badiiy didini paydo bulishi, sezuvchanlik madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.

Hozirgi  zamon tarbiyachilarining bilimiga qo`yilayotgan  yuqori talablar umumiy bilim beradigan va kasbga tayorlaydigan  maktab isloxotlariga tegishli hukumat me’yoriy xujjatlari va  materiallarida uz ifodasini topdi. Mustaqil davlatimiz bugingi kunda ta`lim sohasida  katta  yutuqlarni qulga kiritishga muyassar bo’lmoqda.

Yosh avlod tarbiyasidagi milliy urf-odat dasturlariga alohida e`tibor berildi. Ulardan eng asosiy vazifa yosh avlodni badiiy didini, estetik nazariyasini yaxshilashdan iborat. Go`zallik  xissini rivojlantirish,  yuqori  estetik  didlarni shakllantirish,  san`at asarlarini, tarixiy va arxitektura  esdaliklarini ona tabiatning go’zalligini va boyliklarini tushunish va baholash qobiliyatini rivojlantirish zarur.

## Foydalanilgan adabiyotlar


1. Kadrlar tayarlash milliy dasturi //Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T. Sharq, 1997.
2. Umumiy o`rta ta'lim maktablarida mehnat ta'limi kontseptsiyasi.- Toshkent, 1999.
3. Mehnat ta'limi. Umumiy o'rta ta`limning davlat ta`lim standarti va o'quv dasturi. T. Sharq, 2010.
4. Boymetov B, Tolipov N. Maktabda tasviriy san'at to`garagi. Toshkent, 1995.
5. Abdullaev. N. San`at tariyxi T. 1987 y.
6. Qosimov Naqqoshlik. T. O'qituvchi, 1990.
7. Usmonov O. Komoliddin Behzod va uning naqqoshlik maktabi.– Toshkent: Fan, 1977.
8. Xasanov R. Amaliy bezak sanati mashgulotlari metodikasi T. 2005
9. Hasanov R. Dekorativ Rasm Ishlash T. 1990
10. Hasanov R. Amaliy bezak san'ati mashg`ulotlari metodikasi. O`quv qo`llanma.-Toshkent, 2001.
11. Mirzaxmedov M. Boshlang'ish badiiy naqsh ishlash metodikasi. T. 1977.
12. М.А.Гусакова Аппликация. Учебное пособие. М. "Просвещение" 1987 г.
13. В.А.Барадулина, О.В.Танкус . Основы художественного ремесла. М. "Просвещение" 1986 г.